


YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 58 (1657), 2026-yil 26-mart, payshanba



MAMLAKATIMIZDA ZAMONAVIY MOLIYA VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR SOHASINI JADALLASHTIRUVCHI YO‘NALISHLAR TAQDIMOT QILINDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 25-mart kuni Toshkent xalqaro moliya markazini tashkil etish, Raqamli texnologiyalar xalqaro markazi faoliyatini yo‘lga qo‘yish hamda bank tizimida islomiy moliya mexanizmlarini joriy qilish bo‘yicha taqdimot bilan tanishdi.

Jahondagi geosiyosiy keskinlashuv sharoitida investitsiyalarni jalb qilish uchun raqobat tobora kuchayib bormoqda. Yurtimizning boy tabiiy resurslari, iqtisodiy salohiyati va islohotlari esa bu borada katta ustunlik yaratmoqda.

— Ko‘plab xalqaro kompaniyalar mintaqaviy xavf-xatarlarni baholab, yangi bozorlarni o‘rganishni boshlagan. Bu biz uchun tarixiy imkoniyat. Shu vaziyatda fursatni boy bermasdan, xalqaro moliya kompaniyalarini o‘zimizga tezroq jalb qilishimiz shart, — dedi Prezidentimiz.

Joriy yilda 50 milliard dollardan ziyod investitsiya jalb qilish maqsadiga erishish uchun investorlarning O‘zbekiston bozoriga kirishini yengillashtirish, ularga zamonaviy infratuzilma, xalqaro standartlarga mos huquqiy rejim, qo‘shimcha qulayliklar va eng muhimi, ishonchli hamda shaffof biznes muhitini ta‘minlash zarur.

Shu bois, taqdimotda mamlakatimiz investitsiyaviy jozibadorligini yanada oshirishga qaratilgan uchta ustuvor yo‘nalish — xalqaro moliya va raqamli texnologiyalar markazlarini tashkil etish hamda islomiy moliya xizmatlarini joriy qilish masalalari ko‘rib chiqildi.

Toshkent xalqaro moliya markazi muhokama qilinar ekan, ushbu markaz yangi turdagi investitsiyalarni jalb qilish va barqaror iqtisodiy o‘shishning samarali vositasi bo‘lishi qayd etildi. Hisob-kitoblarga ko‘ra, 2030-yilgacha moliya markazi iqtisodiyotga qo‘shimcha 20-25 milliard dollar jalb qilish, yalpi ichki mahsulot o‘shishiga har yili qo‘shimcha 1 foizgacha hissa qo‘shish, 15 mingtagacha yangi yuqori malakali ish o‘rni yaratish, 10 ming nafar mutaxassis malakasini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

Markaz faoliyati uchun maxsus huquqiy rejim joriy etish ko‘zda tutilgan. Bunda Angliya va Uelsning umumiy huquqi markaz to‘g‘risidagi qonunga zid bo‘lmagan darajada tatbiq qilinadi, markazning boshqaruv organlari o‘z normativ-huquqiy hujjatlarini qabul qilish vakolatiga ega

bo‘ladi, nizolarni ko‘rib chiqishga ixtisoslashgan Toshkent xalqaro tijorat sudi va xalqaro arbitraj markazi faoliyati yo‘lga qo‘yiladi.

Markaz rezidentlari uchun kapitalning erkin harakati va repatriatsiyasi, erkin valyuta operatsiyalari, zamonaviy to‘lov vositalari, jumladan, raqamli aktivlar bilan ishlash, imtiyozli soliq rejimi, soddalashtirilgan viza tartibi kabi keng imkoniyatlar yaratilishi belgilangan. Moliya-investitsiya va bank faoliyati, sug‘urta, raqamli aktivlar, qimmatli qog‘ozlar, to‘lov tizimlari va xizmatlari, moliyaviy texnologiyalar bilan bog‘liq xizmatlar markazning asosiy faoliyat yo‘nalishlari bo‘ladi.

Ikkinchi yo‘nalish — “Enterprise Uzbekistan” brendi ostida Raqamli texnologiyalar xalqaro markazini tashkil etish va rivojlantirish.

Taqdimotda mazkur markaz uchun 2100-yilga qadar amal qiladigan maxsus huquqiy rejim nazarda tutilgan ma‘lum qilindi. Markazda tartibga solish “qumdoni” doirasida yangi yechimlarni sinovdan o‘tkazish, ish haqini xorijiy valyutada to‘lash, xalqaro mehnat standartlarini joriy qilish, shaxsga doir ma‘lumotlarni xalqaro standartlar va bulutli texnologiyalar asosida qayta ishlash mumkin bo‘ladi. Intellektual mulkni himoya qilish, investitsiyalar, startaplar va eksport uchun qulay sharoitlar yaratiladi, bojxona va soliq bo‘yicha yengilliklar beriladi.

Sun‘iy intellekt texnologiyalari, raqamli transformatsiya, tadqiqot va ishlarni, sertifikatlash, startaplar hamda ma‘lumotlar markazlari ushbu markaz faoliyatining asosiy yo‘nalishlari etib belgilanmoqda.

Taqdimotda 2030-yilgacha mazkur markaz orqali 1 mingtagacha kompaniyani jalb qilish, 300 mingdan ziyod ish o‘rni yaratish va 5 milliard dollarlik eksport salohiyatiga chiqish maqsadi belgilangan aytiladi. Bir qator yirik xalqaro texnologik kompaniyalar ushbu tashabbusga qiziqish bildirgani qayd etildi.

Uchinchi yo‘nalish sifatida mamlakatimizda islomiy moliya xizmatlarini joriy qilish masalasi ko‘rib chiqildi.

Yurtimizda tovarni nasiyaga sotish orqali mijozni moliyalashtirish — murobaha, foydani taqsimlash sharti asosida mijozni moliyalashtirish yoki pul mablag‘larini jalb etish — muzoraba, vakillik shartnomasi orqali pul mablag‘larini berish yoki jalb etish — vakala, tovarlar uchun oldindan haq to‘lash orqali moliyalashtirish — salam va istisno, birgalikdagi faoliyat orqali mijozni moliyalashtirish — mushoraka, mol-mulkni islomiy ijara berish kabi operatsiyalar, shuningdek, qonunchilikka zid bo‘lmagan boshqa islomiy moliya instrumentlarini joriy qilish nazarda tutilmoqda.

Bunda sotilgan tovar ustamasiga qo‘shilgan qiymat solig‘i hisoblanmasligi, investitsiyaviy omonatdan olingan daromad soliqdan ozod qilinishi, islomiy ijara shartnomalari moliyaviy ijara va lizingga tenglashtirilishi belgilanmoqda.

Sohada tizimli boshqaruvni ta‘minlash maqsadida Markaziy bank huzurida Islomiy moliya kengashi tashkil etiladi. Shuningdek, islomiy moliya xizmatlarini ko‘rsatuvchi banklarda ham alohida kengashlar tuziladi. Ushbu kengashlar standartlar ishlab chiqish, me‘yoriy-huquqiy hujjatlar loyihalarni tayyorlashda ko‘maklashish, bahsli masalalarga izoh berish, shartnomalar va ichki hujjatlarni ko‘rib chiqish, muvofiqlik ustidan nazoratni ta‘minlash bilan shug‘ullanadi.

Joriy yilda kamida bitta tijorat bankida islomiy “darcha” faoliyatini yo‘lga qo‘yish.

2026-2030-yillarda esa to‘liq islomiy bank faoliyatini amalga oshiruvchi ikkita bank tashkil etish rejalashtirilgan. Umuman, sohadagi yangiliklar orqali 2026-2030-yillarda qo‘shimcha 1 milliard dollar miqdorida investitsiya va depozitlarni jalb qilish imkoniyati yaratilishi qayd etildi.

Davlatimiz rahbari mazkur uch yo‘nalish mamlakatimizda zamonaviy moliyaviy va texnologik ekotizimni shakllantirishga xizmat qilishini ta‘kidlab, ularni amaliyotga tatbiq etish ishlarini jadallashtirish yuzasidan topshiriqlar berdi.

O‘ZA

TOJKISTON PREZIDENTI DAVLAT TASHRIFI BILAN O‘ZBEKISTONDA BO‘LADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon 26-27-mart kunlari davlat tashrifi bilan mamlakatimizda bo‘ladi.

Tashrif doirasida oliy darajadagi muzokaralar hamda O‘zbekiston va Tojikiston yetakchilari raisligida Oliy davlatlararo kengashning birinchi yig‘ilishi bo‘lib o‘tadi.

Bo‘lajak tadbirlar kun tartibidan O‘zbekiston — Tojikiston do‘stlik va yaxshi qo‘shnichilik, strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini yanada mustahkamlash masalalari o‘rin olgan.

Siyosiy muloqotni mustahkamlash, savdo-iqtisodiy va hududlararo hamkorlikni kengaytirish, sanoat kooperatsiyasi hamda transport sohasida o‘zaro bog‘liqlikni rivojlantirish, suv va energetika

xavfsizligini ta‘minlash hamda keng ko‘lamli madaniy va gumanitar almashinuvlarni davom ettirishga alohida e‘tibor qaratiladi.

Davlat rahbarlari xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar hamda ko‘p tomonlama formatlar doirasidagi hamkorlik yuzasidan fikr almashadilar.

Shuningdek, bir qator yangi qo‘shma loyihalarni ishga tushirish ko‘zda tutilgan, ko‘p qirrali hamkorlikni yanada rivojlantirishga qaratilgan ikki tomonlama hujjatlarining salmoqli to‘plami imzolinishi rejalashtirilgan.

O‘ZA

NEFT-GAZ TARMOG‘IDA BARQARORLIK VA ANIQ NATIJADORLIK TA‘MINLANADI

Prezident Shavkat Mirziyoyevga neft-gaz tarmog‘ida qazib chiqarish hajmini barqarorlashtirish va yangi zaxiralarni o‘zlashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar ijrosi yuzasidan hisobot berildi.

“O‘zbekneftgaz” tizimida tabiiy gaz qazib chiqarish dinamikasi, mavjud pasayish omillari hamda ularni qoplash bo‘yicha ko‘rilayotgan choralar haqida axborot berildi. Joriy yilning birinchi choragida yangi quduqlarni ishga tushirish, mavjudlarni ta‘mirlash va texnologik tadbirlarni amalga oshirish hisobiga qo‘shimcha hajmlar ta‘minlangani, yil davomida esa bu boradagi ishlar yanada kengaytirilishi rejalashtirilgani qayd etildi.

Quduqlar samaradorligini oshirish uchun zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish masalasiga alohida e‘tibor qaratildi. Hozirda yangi 2D va 3D seysmik tadqiqotlar uchun istiqbolli maydonlar aniqlanmoqda. Burg‘ilash va dala ishleri ustidan xalqaro standartlar asosida nazoratni kuchaytirish maqsadida supervayzing tizimini yo‘lga qo‘yish, geologik-gidrodinamik modellashtirish va qazib chiqarish yustularini yanada puxta shakllantirish bo‘yicha choralar belgilangan.

Konlarda gaz qazib olish koeffitsiyentini oshirish, qiyin o‘zlashtiriladigan zaxiralarga yangi yondashuvlarni tatbiq etish, 2026-2027-yillarga mo‘ljallangan dasturlarning iqtisodiy samaradorligini baholash masalalariga ham to‘xtalib o‘tiladi. Bu borada xalqaro kompaniyalar bilan hamkorlikda tegishli ishlar olib borilayotgani qayd etildi.

Davlatimiz rahbari tarmoqda ishlab chiqarish barqarorligini ta‘minlash, mavjud quvvatlardan samarali foydalanish, geologiya-qidiruv va burg‘ilash ishlarini tizimli tashkil etish, shuningdek, xorijiy hamkorlar bilan amaliy natija beradigan sheriklikni kengaytirish muhimligini ta‘kidladi.

Mutasaddilarga belgilangan rejalar ijrosini qattiq nazoratga olish va har bir yo‘nalish bo‘yicha aniq natijadorlikni ta‘minlash yuzasidan topshiriqlar berildi.

O‘ZA

TAKOMILLASHGAN “O‘ZBEKISTON – 2030” STRATEGIYASI: ASOSIY O‘ZGARISHLAR VA USTUVOR YO‘NALISHLAR

“Taraqqiyot strategiyasi” markazi ijrochi direktori Eldor TULYAKOV bilan “Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetlari bosh muharriri Salim DONIYOROV suhbatini

— Eldor Sobirjonovich, suhbatimizni davlatimiz rahbarining Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasiga muvofiq “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi loyihasining jamoatchilik muhokamasiga qo‘yilgani va uning natijalari asosida ushbu hujjatda aks etgan o‘zgarishlar mazmun-mohiyatidan boshlasak. Avval, strategik hujjatni qayta ko‘rib chiqish va takomillashtirish zaruratini izohlab bersangiz.

— Hayot doimiy harakat va o‘zgarishda: jamiyat ehtiyojlari izchil kengayib, global iqtisodiy, texnologik hamda geosiyosiy jarayonlar davlatlar oldiga mulqo yangi talab va chaqiriqlarni qo‘ymoqda. Bunday dinamik sharoitda “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini real holat, aholi ehtiyojlari hamda jadal o‘zgarayotgan global tendensiyalardan kelib chiqqan holda qayta ko‘rib chiqish va takomillashtirish obyekti zarurat sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Davlatimiz rahbari 2025-yil 26-dekabr kuni Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga yo‘llagan Murojaatnomasida o‘tgan davrda mamlakatimizda erishilgan ulkan natijalar, istiqbol uchun belgilanayotgan yangi ustuvor vazifalar “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini qayta ko‘rib chiqishni taqozo etayotganini, yurtimizning kelgusi besh yillik taraqqiyotiga daxldor ushbu hujjat keng jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazilib, aholining fikr-mulohazalari asosida takomillashtirilishi zarurligini ta‘kidlagan edi.

Shu bilan birga, strategiyani amalga oshirishning dastlabki bosqichida to‘plangan amaliy tajriba ayrim maqsad va vazifalarni yanada aniqlashtirish, ularni yillar kesimida rejalashtirish, moliyalashtirish manbalari hamda ijro uchun mas‘uliyatni ochiq va shaffof belgilash talabini yuzaga keltirdi. Keng jamoatchilik muhokamasi,



Farovonlik xaritasi

hududlardan kelib tushgan takliflar va ijro jarayonida aniqlangan omillar strategiyani takomillashtirishga ehtiyojni yanada kuchaytiradi.

Shundan kelib chiqib, “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi 2025-yil 29-dekabrda 2026-yil 28-yanvargacha qadar bir oy davomida keng jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazildi.

— Aholining ushbu muhokamadagi ishtiroki, faolligini qanday baholaysiz? Muhokamada jamoatchilik ko‘proq qaysi yo‘nalishlarga e‘tibor qaratgani ham juda muhim. Shu omillarni hisobga olganda u avvalgi taraqqiyot dasturlaridan qaysi jihatlari bilan farqlanadi?

— Bu borada eng muhim va asosiy tamoyillardan biri — strategiyaning xalq bilan maslahatlashuv asosida takomillashtirilgani. Chunki jamoatchilik fikrini o‘zida aks ettirgan hujjatgina hayotiy va samarali bo‘ladi. Eng ko‘p taklif ta‘lim, ekologiya, raqamlashtirish, energetika, transport sohalari bo‘yicha tushgan.

Agar ustuvor yo‘nalishlar kesimida tahlil qilsak, “Har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlarni yaratish” yo‘nalishidagi maqsadli ko‘rsatkichlar ko‘proq qiziqish uyg‘otgan. Lekin bu holat aholining boshqa yo‘nalishlarga e‘tibori nisbatan sust bo‘ldi, degani emas, albatta. Xususan, “Barqaror iqtisodiy o‘shish orqali aholi farovonligini ta‘minlash”, “Suv resurslarini tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish”, “Qonun ustuvorligini ta‘minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish”, “Mamlakatni xavfsiz va tinchliksevar davlatga aylantirish ishlarini davom ettirish” yo‘nalishlarida ham bildirilgan taklif va mulohazalar salmoqli bo‘ldi.

Yangi tahrirda tayyorlangan hamda jamoatchilik muhokamasidan o‘tgan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi amaldagi mazkur hujjatning mantiqiy davomi. Endi unda belgilangan 100 ta maqsadning ijrosini 2030-yilgacha bo‘lgan davrda yillar kesimida

aniq mezonlar asosida baholash imkoniyati yaratildi.

Yangi tahrirdagi strategik hujjatda har bir aniq maqsad va vazifa bo‘yicha mas‘ul davlat organi yoki tashkilot ochiq-ravshan belgilangan. Shuningdek, ularni amalga oshirish uchun zarur moliyaviy manbalar, resurs va ijro muddatlari aniq ko‘rsatilgan. Bu esa strategiyaning umumiy niyatlar va deklarativ maqsadlar majmuasidan aniq ijro mexanizmlari, javobgarlik va hisobdorlikka asoslangan amaliy dasturga aylanishini ta‘minlaydi.

Bu borada, avvalo, soha mutaxassislarining fikri alohida e‘tiborga olindi. Muhokama portalida ham, ommaviy axborot vositalarida ham sohaning ko‘plab bilimdonlari strategiya loyihasidagi kamchiliklarni ko‘rsatib berdi. Ular asosida vazirlik va idoralarga murojaat qilinib, qo‘shimcha ko‘rsatkichlar shakllantirildi.

▶ Davomi 3-beta

O‘ZBEKISTON – TOJKISTON: TARIXIY VA MADANIY YAQINLIKNING MUSTAHKAM POYDEVORIGA ASOSLANGAN IKKI TOMONLAMA HAMKORLIKNING YANGI BOSQICHI

26-27-mart kunlari Tojikiston Prezidenti Emomali Rahmon davlat tashrifi bilan O‘zbekistonda bo‘ladi.

O‘zbekiston va Tojikiston o‘rtasidagi munosabatlarda yaxshi qo‘shnichilik, o‘zaro hurmat, strategik sheriklik tamoyillari asosida izchil rivojlanib bormoqda. Ikki mamlakat xalqlarining tarixiy, madaniy va ma‘naviy yaqinligi davlatlararo

hamkorlikni mustahkamlash va o‘zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirish uchun mustahkam asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

▶ Davomi 2-beta

DO‘STLIK QO‘SHIG‘I

Amu-Sir — rizq-ro‘zi bir, To‘y-bayram — non-tuzi bir, Azaldan mard, yuzi bir, O‘zbek bilan tojikning.

Osmonga xesh Pomiri, Chuqur, teran tomiri, Biri tolib, pir biri, O‘zbek bilan tojikning.

Navoiy bor, Jomiy bor, Chin do‘stlikka homiy bor, Ishqqa to‘la jomi bor, O‘zbek bilan tojikning.

Kuyulari shashmaqomi, Dil ahliga salomi, Sarbalanddir maqomi, O‘zbek bilan tojikning.

Haq quyoshi so‘nmagay, Jaholatga ko‘nmagay, Baxti pastga enmagay, O‘zbek bilan tojikning.

Ikki jo‘ra, birodar, Nuri diya toji sar*, Mehri qiyomat qadar, O‘zbek bilan tojikning.

Keldi porloq zamon — Tangrim bergan imkoni. Tutgay jahonni shoni, O‘zbek bilan tojikning.

G‘ayrat MAJID

* Nuri diya toji sar — tojikcha ibora. Mazmuni: Ko‘zimizga nur, boshimizga tojis.

O'ZBEKISTON – TOJIKISTON: TARIXIY VA MADANIY YAQINLIKNING MUSTAHKAM POYDEVORIGA ASOSLANGAN IKKI TOMONLAMA HAMKORLIKNING YANGI BOSQIHI

Boshlanishi 1-betda

Ikki davlat o'rtasidagi diplomatik munosabatlar 1992-yil 22-oktabrda o'rnatilgan. O'shandan buyon davlatlararo muloqot izchil rivojlanib, so'nggi yillarda alohida sur'at va ko'p qirrali tus oldi.

Oliy darajadagi muntazam siyosiy muloqot O'zbekiston — Tojikiston hamkorligini mustahkamlashda muhim o'rin tutadi. Keyingi yillarda ikki mamlakat yetakchilarining qator o'zaro tashriflari bo'lib o'tdi. Ular strategik sheriklikni rivojlantirish va muhim yo'nalishlarda hamkorlikni kengaytirishga kuchli sur'at bag'ishladi.

Xususan, 2018-yil mart oyida O'zbekiston Prezidentining Dushanbega davlat tashrifi, o'sha yilning avgustida esa Tojikiston Prezidentining javob tashrifi amalga oshirildi. 2021-yil iyunda O'zbekiston rahbari Tojikistonga bordi. 2022-yil iyunda esa Tojikiston Prezidenti rasmiy tashrif bilan O'zbekistonga keldi. O'zbekiston Prezidentining 2024-yil 18-19-aprel kunlari Tojikistonga davlat tashrifi ikki tomonlama muloqotni rivojlantirishning navbatdagi muhim bosqichi bo'ldi.

O'zbekiston va Tojikiston o'rtasidagi siyosiy muloqot yuqori dinamikaga ega bo'lib, oliy va yuqori darajadagi muntazam aloqalar bilan ajralib turadi.

Ikki mamlakat yetakchilari nafaqat ikki tomonlama formatda, balki xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar doirasida ham faol hamkorlik qilib kelmoqda. Xususan, O'zbekiston va Tojikiston Prezidentlari Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining 2025-yil 16-noyabr kuni Toshkentda bo'lib o'tgan Maslahat uchrashuvida, shuningdek, MDH davlat rahbarlarining 2025-yil 9-10-oktabr kunlari Dushanbe shahrida bo'lib o'tgan kengashi yig'ilishida va 2025-yil 22-dekabr kuni Sankt-Peterburgda bo'lib o'tgan MDH davlatlari rahbarlarining norasmiy uchrashuvida ishtirok etdi.

“Markaziy Osiyo +” formatlari doirasida ham faol hamkorlik qilinmoqda. Xususan, ikki davlat rahbarlari 2025-yil 3-4-aprel kunlari Samarqand shahrida bo'lib o'tgan “Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi” sammiti hamda 2025-yil 9-10-oktabr kunlari Dushanbe shahrida bo'lib o'tgan “Markaziy Osiyo — Rossiya” sammitida ishtirok etdi.

O'zbekiston, Tojikiston va Qirg'iziston yetakchilarining 2025-yil 31-mart kuni Xo'jand shahrida bo'lib o'tgan o'zaro tomonlama uchrashuvi mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirishda muhim voqea bo'ldi. Muzokaralar

yakunida uch mamlakat davlat chegaralarining tutashgan nuqtasi to'g'risidagi tarixiy shartnoma imzolandi. Davlatlarning yaxshi qo'shniçilik munosabatlarini mustahkamlash, o'zaro ishonch va mintaqani barqaror rivojlantirishga intilishini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan qo'shma deklaratsiya qabul qilindi.

Erishilgan kelishuvlar ko'p yillik chegara masalalarini hal etish, Markaziy Osiyoda barqarorlik va sheriklikni mustahkamlashda muhim qadam bo'ldi. Ekspertlarning fikricha, qarorlar mintaqaning tinçligi, xavfsizligi va xalqaro nufuzining oshishiga xizmat qiladi. Tomonlar amaliy hamkorlikni kengaytirish, jumladan, savdo, transport, sanoat, “yashil” energetika, suv resurslari va ekologiya sohaslarini rivojlantirish, chegaradoli hududlarning o'zaro hamkorligi va madaniy-gumanitar aloqalarni mustahkamlash borasidagi intilishlari qat'iy ekanini ta'kidladi.

O'zbekiston va Tojikiston xalqaro maydonda faol hamkorlik qilib, yetakchi xalqaro va mintaqaviy tuzilmalar, jumladan, BMT, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Islom hamkorlik tashkiloti, MDH, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti, Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi doirasida bir-birining tashabbuslarini qo'llab-quvvatlab kelmoqda.

BMT doirasida O'zbekiston va Tojikiston ikki va ko'p tomonlama yaqindan hamkorlik qilib kelmoqda. Tojikiston O'zbekiston tashabbusi bilan tinçlik, barqaror rivojlanish, mintaqaviy hamkorlik, diniy bag'rikenglik, turizm va ekologiyani mustahkamlashga qaratilgan qator rezolyutsiyalarning hammuallifi. O'z navbatida O'zbekiston Tojikistonning muhim tashabbuslarini qo'llab-quvvatlaydi.

Siyosiy muloqotni mustahkamlashga ko'maklashadigan va erishilgan kelishuvlarning samarali amalga oshirilishini ta'minlaydigan parlamentlar va idoralararo aloqalarni rivojlantirish O'zbekiston — Tojikiston hamkorligining muhim yo'nalishidir.

Ikki mamlakat parlamentlari o'rtasidagi aloqalar ham sezilarli darajada qo'llab-quvvatlanib kuzatilmoqda. O'zbekiston vakillari Tojikistondagi parlament va prezidentlik saylovlarida MDH va SHHT missiyalari tarkibida xalqaro kuzatuvchi sifatida ishtirok etgani yuqori darajadagi ishonch va o'zaro qo'llab-quvvatlovdan dalolat beradi. Parlament delegatsiyalarining o'zaro tashriflari muntazamlik kasb etdi. Parlamentdagi do'stlik guruhlari doirasidagi aloqalar faol rivojlanmoqda. 2025-yilda parlamentlar rahbariyati doirasida do'stlik guruhlari hamraisalarining uchrashuvlari va muzokaralari bo'lib o'tdi. Ikki mamlakatning



regishli qo'mitalari va komissiyalari o'rtasida qator onlayn maslahatlashuvlar o'tkazildi.

O'zbekiston va Tojikiston o'rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalar ikki tomonlama hamkorlikning muhim yo'nalishlaridan. Iqtisodiy munosabatlarning asosini 1996-yilda imzolangan Erkin savdo to'g'risidagi hukumatlararo bitim, 2002-yildan buyon faoliyat yuritib kelayotgan Savdo-iqtisodiy hamkorlik bo'yicha O'zbekiston — Tojikiston hukumatlararo komissiyasi faoliyati tashkil etadi.

Keyingi yillarda o'zaro savdoda barqaror ijobiy sur'at kuzatilmoqda. 2025-yil yakunlariga ko'ra, ikki mamlakat o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi 912,3 million dollarga yetdi. Bu o'tgan yildagiga nisbatan 30 foiz ko'p. Shu bilan birga, O'zbekistondan eksport qiymati 683 million dollari, Tojikistondan import esa 229,3 million dollari tashkil etdi.

Ikki tomonlama savdo tuzilishi xilma-xilligi bilan ajralib turadi. O'zbekiston eksportining asosiy yo'nalishi sanoat tovarlari, xizmatlar, mashinalar va transport uskunalar, kimyo mahsulotlari va mineral yoqilg'idir. Tojikistondan import tarkibida nooziq-ovqat xomashyosi, yonilg'i-energetika resurslari, mashina va uskunalar, oziq-ovqat mahsulotlari ustunlik qiladi.

Investitsiyaviy hamkorlik ham rivojlanmoqda. Bugun O'zbekiston hududida Tojikiston kapitali ishtirokidagi 343 korxonalar, jumladan, qo'shma korxonalar va yuz foiz xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar faoliyat yuritmoqda. Tojikistonda O'zbekiston rezidentlari ishtirokida savdo,

qurilish materiallari ishlab chiqarish, oziq-ovqat sanoati, transport va boshqa xizmatlar ko'rsatish bilan shug'ullanuvchi 71 kompaniya mavjud.

O'zaro investitsiyalar hajmi ham sezilarli darajada oshdi. Xususan, 2025-yilda Tojikiston bilan hamkorlik doirasida 427 million dollardan ortiq xorijiy investitsiya va kreditlar o'zlashtirildi. Bu o'tgan davrdagiga nisbatan qariyb uch barobar ko'p.

Transport infratuzilmasini rivojlantirish va logistika aloqalarini kengaytirish O'zbekiston — Tojikiston hamkorligining muhim yo'nalishi. Bu boradagi hamkorlik iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash, savdo hajmini oshirish va mintaqaning tranzit salohiyatini rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

O'zbekiston va Tojikiston temir yo'l hamda avtomobil yo'llari ma'muriyatlarining hamkorligi xalqaro transport tashkilotlari orqali amalga oshirilmoqda. 2022-yil iyundan boshlab Dushanbe — Toshkent muntazam temir yo'l qatnovi qayta tiklandi. 2025-yilda esa xalqaro yuk tashish hajmi 9,9 million tonnaga yetib, o'tgan yildagiga nisbatan 12,7 foiz oshgan. 2018-yilda imzolangan hukumatlararo bitim avtomobilida yo'lovchi va yuk tashishni kengaytirishga xizmat qildi. Bugun “Toshkent — Xo'jand”, “Qo'qon — Shaydon”, “Dushanbe — Termiz”, “Toshkent — Dushanbe”, “Samarqand — Panjikent” va “Dushanbe — Denov” yo'nalishlarida muntazam avtobus qatnovi yo'lga qo'yilgan.

Aviatashuvlar sohasidagi hamkorlik ham faol rivojlanmoqda. Bugun ikki davlat o'rtasida

“Uzbekistan Airways”, “Centrum Air” va “Somon Air” aviakompaniyalari tomonidan haftasiga 10 tagacha muntazam aviaqatnov amalga oshirilmoqda. 2025-yilda ikki mamlakat aviatashuvchilari 133 mingdan ortiq yo'lovchini tashidi. Bu o'tgan yildagiga nisbatan 24 foiz ko'pdir.

O'zbekiston va Tojikiston o'rtasidagi ikki tomonlama munosabatlar tarkibida energetika sohasidagi hamkorlik muhim o'rin tutadi. Tomonlar suv-energetika resurslaridan oqilona foydalanish, elektr energiyasi ishlab chiqarish va energiya resurslarini yetkazib berish sohasidagi hamkorlikni izchil rivojlantirishda.

Madaniy-gumanitar hamkorlik O'zbekiston — Tojikiston munosabatlarida alohida o'rin tutadi va ikki mamlakat xalqlari o'rtasidagi do'stlik va o'zaro anglashuvni mustahkamlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Keyingi yillarda madaniy-ma'rifiy va ilmiy almashinuvlar sezilarli darajada faollashdi. Madaniyatlararo muloqotni kengaytirish va umumiy tarixiy-madaniy merosni asrab-avaylashga xizmat qiladigan kino kunlari, madaniy forumlari, anjumanlar, teatrlarning gastrol safarlari va qo'shma madaniy tadbirlar muntazam o'tkazib kelinmoqda.

Xususan, turli yillarda Tojikistonda O'zbekiston va O'zbekistonda Tojikiston kino kunlari, shuningdek, ikki mamlakat ijodkor ziyolilari ishtirokida madaniy tadbirlar tashkil etilgan. Tojikiston delegatsiyalari O'zbekistonda o'tkazilayotgan xalqaro madaniyat festivallari,

jumladan, baxshichilik san'ati, “Sharq taronalari” festivallari va xalqaro xalq ijodiyoti anjumanlarida muntazam ishtirok etib kelmoqda.

Ta'lim va ilm-fan sohasidagi hamkorlik alohida ahamiyatga ega. Ilmiy-amaliy anjumanlar, olimlar va akademik doiralardagi vakillarining uchrashuvlari o'tkazilmoqda. Ijtimoiy obyektlar qurilishi ikki tomonlama hamkorlikning muhim ramzi bo'ldi. Xususan, O'zbekiston tomonidan Tojikistonning So'g'd viloyatida maktab qurildi. Shuningdek, Qubodiyon tumanida tibbiyot infratuzilmasini yaratish bo'yicha loyihalar amalga oshirildi. Shifoxona va poliklinikalar barpo etildi.

Yoshlar o'rtasidagi aloqalarni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Ikki mamlakat yoshlari o'rtasida o'zaro anglashuvni mustahkamlashga qaratilgan yoshlar forumlari, ekologik oromgohlar va ma'rifiy tadbirlar tashkil etilmoqda.

Madaniy-gumanitar aloqalarni rivojlantirishda O'zbekistondagi tojik diasporasi muhim o'rin tutadi. Mamlakatimizda tojik tilida milliy madaniy markazlar, ta'lim muassasalari, ommaviy axborot vositalari faoliyat yuritmoqda.

Xususan, O'zbekistondagi 253 maktabda ta'lim tojik tilida olib borilmoqda, qator universitetlarda tojik tilida ta'lim beriladigan guruhlar tashkil etilgan. Bundan tashqari, tojik tilida matbuot nashrlari, teleko'rsatuv va radioeshittirishlar tayyorlanmoqda. Bu esa milliy madaniyat va an'analarni saqlab qolishga xizmat qilmoqda.

Bugun O'zbekiston — Tojikiston munosabatlari barqaror rivojlanish sur'atini namoyish etib, siyosiy muloqot va iqtisodiy hamkorlikdan tortib, madaniy-gumanitar almashinuvga bo'lgan hamkorlikning keng ko'lamli yo'nalishlarini qamrab olgan.

Oliy darajadagi muntazam muloqotlar, xalqaro tashkilotlar doirasidagi faol hamkorlik, o'zaro savdoning o'sishi va qo'shma infratuzilmaiy loyihalarning rivojlanishi ikki davlat o'rtasidagi strategik sheriklikning yuksak darajasidan dalolat beradi.

O'zbekiston va Tojikiston xalqlarining tarixiy va madaniy yaqinligi, tomonlarning o'zaro hurmat, ishonch va bir-birining manfaatlarini hisobga olish asosida hamkorlikni yanada chuqurlashtirishga intilishi ikki tomonlama aloqalarni mustahkamlashda muhim o'rin tutadi.

Hech shubhasiz, oliy darajadagi navbatdagi O'zbekiston — Tojikiston sammiti nafaqat ikki davlat, balki umumiy Markaziy Osiyo mintaqasida barqarorlik, xavfsizlik va izchil taraqqiyotni mustahkamlashga xizmat qiladi.

“Dunyo” AA

Forum

2021-yili Prezidentimizning Tojikistonga rasmiy tashrifi doirasida Buxtara shahrida o'tkazilgan birinchi O'zbekiston — Tojikiston mintaqalararo forumi ikki mamlakat o'rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalarni yangi bosqichga olib chiqqan edi. Ushbu muloqot maydoni orqali hududlar o'rtasida bevosita hamkorlik yo'lga qo'yilib, aniq investitsiyaviy va kooperatsion loyihalarga asos solindi. Natijada qisqa muddatda o'zaro savdo hajmi sezilarli darajada oshdi. Bu mintaqalararo hamkorlik formatining samaradorligini amalda isbotladi.



OCHIQ, SAMARALI VA PRAGMATIK MULOQOT MUHITI

Mazkur ijobiy tajribaning mantiqiy davomi sifatida Tojikiston Prezidenti Emomali Rahmonning mamlakatimizga davlat tashrifi doirasida Jizzax viloyatining “Aydarko'l Resort” majmuasida O'zbekiston — Tojikiston ikkinchi mintaqalararo forumi o'tkazildi. Ushbu forum avvalgi uchrashuvlarda erishilgan kelishuvlarni mustahkamlash, ularni amaliy jihatdan kengaytirish va yangi yo'nalishlarda hamkorlikni chuqurlashtirishga xizmat qilmoqda.

Tadbirida Tojikiston Respublikasidan 30 dan ortiq rasmiy shaxs, 80 tadbirkor, shuningdek, mamlakatimizning turli hududidan ishbilarmon doira vakillari, mahalliy investorlar hamda ommaviy axborot vositalari xodimlari ishtirok etdi.

Ikkinchi forum davlatlarimiz o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar izchil rivojlanayotgani barobarida o'zaro ishonch, do'stlik va strategik sheriklik mustahkamlanayotganini ham yaqqol namoyon etdi. Yuksak saviyada



tashkil etilgan forum, ikki mamlakat o'rtasida shakllangan ochiq, ishonchli va pragmatik muloqot muhiti mintaqalararo hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqqani ta'kidlandi.

Alohida qayd etilganidek, O'zbekiston va Tojikiston o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar va barqaror rivojlanib bormoqda. Chegaradosh hududlarda savdo aylanmasini oshirish, sanoat kooperatsiyasini kengaytirish, qo'shma korxonalar tashkil etish va yangi ish o'rinlari ochish uchun ulkan imkoniyatlar mavjud.

Mintaqalararo hamkorlik investorlar, ishbilarmonlar va rasmiy delegatsiya vakillariga hududning iqtisodiy va turistik salohiyati haqida batafsil ma'lumot berdi. Hududning qulay geografik joylashuvi, boy tabiiy resursi, rivojlanayotgan infratuzilmasi va investitsiya uchun yaratilgan sharoitlari xalqaro hamkorlik uchun jozibador ekanini ta'kidladi.

Forum davomida ikki davlat tadbirkorlari loyihalari, investitsiya takliflari va istiqbolli

tashabbuslarini taqdim etdi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlash, qurilish materiallari ishlab chiqarish, to'qimachilik sanoatini rivojlantirish, shuningdek, turizm sohasida hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan qator muhim kelishuv va bitimlar imzolandi. Mutaxassislar fikricha, ushbu kelishuvlar yaqin istiqbolda amaliy natijalar berib, yangi investitsiya loyihalarining ishga tushirilishi, hududlarda iqtisodiy faollik oshishi va yangi ish o'rinlari ochilishiga xizmat qiladi.

Mintaqalararo hamkorlik mexanizmlarining samarali joriy etilishi natijasida ikki mamlakat hududlari o'rtasidagi aloqalar izchil mustahkamlanib bormoqda, — deydi Jizzax viloyati hokimining birinchi o'rinbosari Zafar Azimov. — Xususan, 2025-yil yakuniga kelib, viloyatimizning Tojikiston bilan savdo aylanmasi 6 million dollardan oshdi. Bu ko'rsatkich o'zaro ishonch hamda samarali iqtisodiy hamkorlikning amaliy ifodasidir. Eksport tarkibida qishloq

xo'jaligi va oziq-ovqat tovarlari, qurilish materiallari, shuningdek, yengil sanoat mahsulotlari yetakchi o'rinni egallaydi. Bu esa Jizzaxda ishlab chiqarish salohiyati tobora ortib borayotganini ko'rsatadi. Viloyat nafaqat agrar yo'nalis, balki sanoatda ham mamlakatdagi ilg'or hududlardan biriga aylanib bormoqda. Ayni paytda hududda xorijiy kapital ishtirokidagi 250 dan ortiq korxonalar faoliyat yuritmoqda. Uslarning muayyan qismi qo'shma korxonalaridir. Shuning o'ziyiq hududning investitsiyaviy jozibadorligi ortib borayotganidan dalolat. Hozir umumiy qiymati 3 milliard dollardan ziyod bo'lgan 100 dan ortiq investitsiya loyihasi amalga oshirilmoqda. Mazkur loyihalar avtomobilsozlik, elektrotexnika, kimyo sanoati, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish, qurilish materiallari hamda tog'-kon sanoati kabi strategik muhim tarmoqlarni qamrab olgan. Forum doirasida viloyatimizda faoliyat yuritayotgan ko'plab korxonalar va tojikistonlik tadbirkorlar o'rtasida manfaatli hamkorlik shartnomalari imzolandi. Kelishuvlar kelgusida qo'shma ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, yangi bozorlarga chiqish va eksport hajmini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Yuk tashish sohasida faoliyat yuritayotgan tadbirkor sifatida ushbu forumda ishtirok etganidan juda mamnunman, — deydi tojikistonlik tadbirkor Rustam Nurmatov. — Avvalo, chegaradan o'tish jarayonidan boshlab bizga ko'rsatilgan e'tibor va hurmat alohida taassurot qoldirdi. Barcha jarayon tez, tartibli va ochiq tashkil etilgan. Muhimi, samimiy munosabatni his qildik. Bu juda quvonarli. Forum doirasidagi tadbirlar ham yuqori saviyada tashkil etilgan. Ayniqsa, Jizzax viloyatidagi o'zgarishlar meni hayratga soldi. Ilgari ham bu hudud haqida eshitganman. Ammo bugungi taraqqiyot sur'ati, yangi korxonalar, zamonaviy infratuzilma va qulay ishbilarmonlik muhiti

haqiqatan ajoyib. Bu yerda ishlash, hamkorlik qilish uchun barcha sharoit yaratilganiga guvoh bo'ldik. Tadbir o'tkazilgan “Aydarko'l Resort” majmuasi alohida e'tirofga loyiq. Tabiat qo'nyida bunyod etilgan zamonaviy maskan nafaqat dam olish, balki xalqaro darajadagi uchrashuvlar o'tkazish uchun ham juda qulay ekan. Aydarko'l atrofidagi go'zal manzara, tinç muhit va yuqori darajadagi xizmat ko'rsatish sifati mehmonlarda iliq taassurot qoldiradi. Forumda o'zbekistonlik ko'plab tadbirkorlar bilan muloqot qildik. Yangi hamkorlik yo'nalishlari haqida fikr almashdik. Biz uchun bu kabi uchrashuvlar juda muhim. Chunki ular orqali bevosita aloqa o'rnatamiz, bir-birimizni yaxshiroq tushunamiz va ishonch mustahkamlanadi. Muhimi, bu yerda ikki xalq o'rtasidagi haqiqiy do'stlikni his qildim. O'zbek va tojik xalqlari azaldan bir-biriga yaqin. Bugungiday uchrashuvlar esa ana shu do'stlikni yanada mustahkamlaydi. Ishonamanki, bunday forumlar nafaqat biznesni, balki xalqlarimiz o'rtasidagi mehr-ovqat va yaqin qo'shniçilik munosabatlarini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tojikistonlik tadbirkor sifatida 2019-yildan buyon O'zbekistonda faoliyat yuritib kelmoqdaman, — deydi “Guliston Alyumin Pro” MCHJ rahbari Baxtiyor Jamolov. — Bu yerda xorijiy investor va tadbirkorlar uchun barcha zarur sharoit, ochiqlik, qo'llab-quvvatlash va ishonch muhiti yaratilgan. Korxonamizda 250 turdan ortiq izolyatsiyali va izolyatsiyasiz alyuminiy kabel ishlab chiqariladi. Mahsulotlarimizni ichki bozor bilan birga xorijga ham sotaymiz. Ayni paytda 35 kishini ish bilan ta'minlaganmiz. O'zbekistonda biznes yuritish uchun yaratilgan kompleks imkoniyat va berilayotgan ko'mak faoliyatimizni kengaytirishda muhim omil bo'lmoqda. Forumda yangi hamkorlar topdik. Ikki mamlakat tadbirkorlari o'rtasidagi samimiy munosabatlarni yanada chuqur his qildik. Umuman forumdagi ochiq muloqot va amaliy yondashuv bizga katta ishonch berdi.

Darhaqiqat, do'stlik, hamjihatlik va hamkorlik har qanday taraqqiyotning asosiy ustunidir. O'zbekiston va Tojikiston o'rtasidagi munosabatlar ana shu qadriyatlarining amaliy ifodasidir.

Farhod NE'MATOV, “Yangi O'zbekiston” muxbiri

TAKOMILLASHGAN "O'ZBEKISTON — 2030" STRATEGIYASI: ASOSIY O'ZGARISHLAR VA USTUVOR YO'NALISHLAR

"Taraqqiyot strategiyasi" markazi ijrochi direktori Eldor TULYAKOV bilan "Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini bosh muharriri Salim DONIYOROV suhbatida

Boshlanishi 1-betda

— "O'zbekiston — 2030" strategiyasi juda keng qamrovli va xalq manfaatlarini asosida ishlab chiqilgan hujjat. Uni amalga oshirishda ham asosiy ishtirokchi xalq. Shu ma'noda, ya'ni oddiy fuqarolar nuqtayi nazaridan qaraganda aholining turmush darajasini oshirish, ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va kundalik hayotida qanday ijtimoiy o'zgarishlarni ta'minlash ko'zda tutilgan?

— Strategiyaning yana bir muhim jihati — har bir fuqaro uchun tushunarli, hayotiy va amaliy bo'lishiga qaratilgan. Har bir yurtdoshimiz unga nazar solib, "Bu hujjat menga nima beradi, hayotimni yanada yaxshilashga qanday xizmat qiladi, oilam va farzandlarim kelajagi uchun qanday imkoniyatlar yaratadi?" kabi savollarga aniq va ishonchli javob topa olsin. Ya'ni strategiyaning abstrakt shiorlardan iborat emas, balki har bir inson hayotida bevosita seziladigan, kundalik turmushida ko'rinadigan aniq o'zgarishlar manbai bo'lishi ko'zda tutilgan.

Bu muhim hujjatda belgilangan o'rta muddatli maqsadlar va samaradorlik ko'rsatkichlari yangi iqtisodiy, ijtimoiy va texnologik chaqirig'lar, shuningdek, xalqaro maydondagi o'zgarishlarga mos yangilanyapti.

Bunda strategiya ijrosini monitoring qilish tizimini to'liq raqamlashtirishga alohida e'tibor qaratilgan. Vazifalarning ijro holatini real vaqt rejimida shaffof kuzatish aniq ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish hamda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish imkoniyatini yaratadi.

Agar amaldagi strategiyada asosiy maqsad va ustuvor yo'nalishlar belgilab berilgan bo'lsa, takomillashgan tahrirda har bir maqsad aniq yillik indikatorlar bilan bog'langan. Ya'ni 2026-2030-yillarda qaysi ko'rsatkichga qachon erishilishi, buning uchun qanday moliyaviy manbalar jalb etilishi hamda qaysi vazirlik yoki idora mas'ul ekani aniq belgilab qo'yildi.

Qisqasi, takomillashgan "O'zbekiston — 2030" strategiyasi xalq manfaatlariga xizmat qiluvchi, ochiq, izchil va amaliy dastur sifatida mamlakat taraqqiyotida mutlaqo yangi sahifani ochmoqda.

— 2030-yilgacha mo'ljallangan strategiya doirasida iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi turmush darajasini oshirish, kambag'allikni qisqartirish, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish hamda investitsiya va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha asosiy maqsad va vazifalar, rejalarni izohlab bersangiz.

— Mamlakatimiz yetakchisi yangi O'zbekistonning taraqqiyot formulasi sifatida iqtisodiyotni jamiyat hayotining tanasi sifatida ta'riflagandi. Iqtisodiyotning tarkibiy o'zgarishi, yuqori qo'shilgan qiymat yaratish, mehnat unumdorligini oshirish va aholi daromadining barqaror o'sishini ta'minlash masalalari ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Asosiy maqsad — 2030-yilga qadar iqtisodiyot hajmini kamida ikki baravar oshirish, aholi jori boshiga to'g'ri keladigan daromadni 5800 dollarga yetkazish hamda O'zbekistonni "daromadi o'rtachadan yuqori davlatlar" qatoriga kiritishdan iborat.

Jumladan, 2030-yilga qadar yalpi ichki mahsulot qiymatini 240 milliard dollarga yetkazish, inflyatsiya darajasini 5-6 foiz atrofida barqarorlashtirish, konsolidatsiyalashgan budget taqchilligini YIMga nisbatan 3 foizdan oshirmaslik hamda davlat qarzini 50 foizdan yuqori bo'lmagan darajada ushlab turish rejalashtirilgan. Bu choralar iqtisodiyotning tashqi iqtisodiy shok — mamlakat iqtisodiyotiga tashqaridan (xalqaro bozorlar, geosiyosat) ta'sir etuvchi, kutilmagan va noxush o'zgarishlar (narxlar sakrashi, logistika uzilishi)ga chidamliligini oshirib, ijtimoiy dastur va infratuzilma loyihalarni uzluksiz moliyalashtirishga xizmat qiladi.

Yana bir muhim yo'nalish — soliq-budjet va moliyaviy boshqaruv tizimi islohoti haqida gapirmaslikning iloji yo'q. Jumladan, soliq tushumlarining YIMdagi ulushini 17,3 foizgacha oshirish va bojxona tushumlarining YIMdagi ulushini 4,4 foizdan kam bo'lmashini ta'minlash ko'zda tutilgan. Shu bilan birga, 52 ta vazirlik va idorani to'liq "dasturiy budjetlashtirish" tizimiga o'tkazish orqali davlat xarajatining samaradorligi



Farovonlik xaritasi

QR-KOD ORQALI VIDEOGA O'TING!

oshiriladi, budjetdagi har bir so'mning aniq natija berishi ta'minlanadi.

Sanoatni rivojlantirish va yuqori qo'shilgan qiymat yaratish strategiyasining markaziy yo'nalishlaridan. 2030-yilga qadar sanoatda texnologik mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini 2,5 baravar oshirish, sanoatda qo'shilgan qiymat hajmini 36,5 milliard dollardan 60 milliard dollarga yetkazish hamda 1,8 million yuqori daromadli ish o'rinlarini ochish rejalashtirilgan. Ishlab chiqariladigan yengil avtomobillar sonini 1 milliontaga yetkazish, mashinasozlik, elektrotexnika, kimyo va farmatsevtika sohalarini rivojlantirish orqali iqtisodiyotning yangi "drayver" tarmoqlari shakllantiriladi. Bu esa yoshlar bandlegini ta'minlash va hududlarda iqtisodiy faolligni oshirishda juda muhim.

Yangi strategiyada "yashil iqtisodiyot" ga o'tishga ham alohida e'tibor qaratilgan, maqsad va rejalar aniq raqamlarda aks etgan. Xususan, 2030-yilga qadar qayta tiklanuvchi energiya manbalarining umumiy quvvatini 25 ming megavattga yetkazish, ularning elektr energiyasi generatsiyasidagi ulushini 54 foizga chiqarish hamda issiqxona gazlari intensivligini 2010-yil darajasiga nisbatan 35 foiz qisqartirish belgilangan. Bu ekologik barqarorlik bilan birga energiya xavfsizligi va uzoq muddatli iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi.

Umuman olganda, yangi tahrirdagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasi faqat ulkan raqamlar yoki rejalar yig'indisi emas. U har bir fuqaroning hayot sifati, barqaror ish o'rinlari, daromadlar o'sishi va kelajakka ishonchni mustahkamlashga qaratilgan kompleks dasturdir.

Ushbu maqsadlarga erishish uchun esa inson kapitali rivoji, sog'liqni saqlash, ta'lim sifati, ijtimoiy himoya, bandlegini ta'minlash va raqamli xizmatlarni keng joriy etish kabi yo'nalishlarga alohida urg'u berilgan.

— Davlat boshqaruvi tizimini raqamlashtirish jarayoni jadallashib borayotgan bir sharoitda davlat xizmatlarini raqamli formatga o'tkazish, ortiqcha byurokratik jarayonlarni qisqartirish, idoralararo axborot almashinuvini kuchaytirish hamda aholi va tadbirkorlik subyektlari uchun xizmatlardan foydalanishni yanada soddaga va qulay qilish borasida qanday ustuvor maqsad va aniq vazifalar belgilangan?

— Davlat xizmatlarini raqamlashtirish borasida belgilangan maqsadlar, avvalo, aholi va tadbirkorlik subyektlari uchun davlat xizmatlaridan foydalanish jarayonini yanada soddaga va qulay shaklga o'tkazishga qaratilgan. Ushbu yo'nalishda elektron shaklda ko'rsatiladigan davlat xizmatlari ulushini 90 foizdan oshirish vazifasi belgilangan. Bu esa xizmatlarning asosiy qismini masofaviy va raqamli mexanizmlar orqali taqdim etish, inson omilini qisqartirish, ma'muriy jarayonlarni soddalashtirish hamda xizmatlardan foydalanish samaradorligini oshiradi.

Shu bilan birga, Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali mobil ilovasida joriy qilingan xizmatlarning yagona portaldagi xizmatlarga nisbatan ulushini 90 foizga yetkazish belgilangan. Bu davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini nafaqat veb-portal, balki mobil platformalar orqali ham kengaytirishni nazarda tutadi.

Davlat xizmatlarining 20 foizini xususiy sektorga o'tkazish orqali davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish, shiklat ko'rsatishda raqobat muhitini shakllantirish va aholiga yanada sifatli servis taklif etish maqsad qilingan. Bu esa davlatning barcha jarayonini bevosita amalga oshiruvchi emas, balki tartibga soluvchi va nazorat qiluvchi subyekt sifatidagi rolini kuchaytiradi.

"O'zbekiston — 2030" strategiyasida 110 dan ortiq ma'lumot va hujjatlarni talab qilishni bekor qilish vazifasi ham qo'yildi. Bu davlat organlari ixtiyorida mavjud ma'lumotlarni fuqarolardan qayta talab qilmaslik, idoralararo axborot almashinuvini kuchaytirish va ortiqcha hujjatbozlikni qisqartirishga xizmat qiladi.

Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va davlat xizmatlarini raqamlashtirish mamlakatni zamonaviy, samarali va shaffof boshqaruv tizimiga olib chiqishning muhim omili sifatida belgilangan. Davlat boshqaruvi,

Raqamli texnologiyalarni sanoat, moliya, savdo, transport va boshqa tarmoqlarga joriy etish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, biznes jarayonlarini avtomatlashtirish va innovatsion xizmatlar ulushini kengaytirish milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, ijtimoiy sohalarda raqamli texnologiyalarni keng qo'llash ham ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Masalan, tibbiyot muassasalarini raqamlashtirish ko'lamin 2030-yilga qadar 100 foizga yetkazish, elektron tibbiy kartalarni joriy etish va raqamli sog'liqni saqlash yagona platformasini to'liq ishga tushirish ko'zda tutilgan.

Qisqasi, davlat xizmatlarini elektron shaklga o'tkazish, iqtisodiyot tarmoqlarini raqamlashtirish, tibbiyot va ijtimoiy xizmatlar sohasida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish orqali davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish, aholi va biznes uchun qulay raqamli muhit barpo etilishi kutilmoqda.

Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishning muhim omillaridan. Chunki shu orqali investitsiya muhitini yaxshilash, xususiy sektor faolligini kuchaytirish va tadbirkorlikni rag'batlantirishga qaratilgan qator yangi mexanizmlar qo'llanadi. Bu



iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohalariga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish orqali xizmatlar sifatini oshirish hamda aholi va biznes uchun qulay raqamli muhit yaratish maqsad qilingan.

Strategiyaga muvofiq, davlat organlari faoliyatida zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish, davlat xizmatlarini elektron shaklda taqdim etish ko'lamin kengaytirish va ularning shaffoligini hamda tezkorligini ta'minlash choralarini ko'rilayotir. Bu orqali aholi va tadbirkorlar uchun davlat xizmatlaridan foydalanish jarayoni soddalashtirilib, byurokratik to'siqlar yanada kamaytiriladi.

yo'nalishda aniq raqam va maqsadlarni keltirib o'taman.

Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish hajmini yillik o'rtacha 7 foiz oshirish, qimmatli yo'llar bozorida erkin muomaladagi savdolar hajmini 8 milliard dollarga yetkazish va davlat ishtirokidagi 40 ta korxonani "Xalq IPO"ga chiqarish rejalashtirilgan. Bu orqali aholining investitsiya jarayonidagi ishtirokini kengaytirish va kapital bozorini rivojlantirishga erishiladi.

Shu bilan birga, strategiyada davlat ishtirokini qisqartirish va xususiy sektor rolini kuchaytirish ko'rsatilgan. Davlat ishtirokidagi korxonalarni bosqichma-

bosqich xususiy lashtirish, korporativ boshqaruv standartlarini joriy etish va raqobat muhitini kengaytirish orqali iqtisodiyotda xususiy biznesning ulushini oshirish maqsad qilingan. Bu esa bozor mexanizmlari yanada samarali ishlashini ta'minlash va xususiy sektorning iqtisodiyotdagi ulushini 85 foiz oshirish imkon beradi.

Strategiyada tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va biznes muhitini yaxshilash alohida o'rin egallagan. Jumladan, tadbirkorlik subyektlari uchun ma'muriy to'siqlarni qisqartirish, litsenziya va ruxsatnomalar berish tartibini soddalashtirish, davlat xizmatlarini raqamlashtirish orqali biznes yuritish jarayonlarini yengillashtirish ko'zda tutilgan.

Bundan tashqari, investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun infratuzilmani rivojlantirish ham muhim yo'nalish sifatida belgilangan. Sanoat zonalarini, erkin iqtisodiy zonalar va texnoparklar faoliyatini kengaytirish, transport va logistika infratuzilmasini yaxshilash orqali investorlar uchun yanada qulay shart-sharoit yaratish hududlarda iqtisodiy faolligni oshirishga xizmat qiladi.

Xorij investitsiyasini jalb qilish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar bu boradagi muhitni yaxshilash, kapital bozorni rivojlantirish, davlat ishtirokini qisqartirish va xususiy sektor rolini kuchaytirishga qaratilgan. Bu chora-tadbirlar mamlakat iqtisodiyotida tadbirkorlik faolligini oshirish, yanada ko'p yangi ish o'rinlarini ochish hamda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda g'oyat muhim.

— Biz so'z yuritayotgan bu muhim hujjat mamlakatimizning tashqi siyosat yo'nalishini ham qamrab oladi. Unda O'zbekistonning xalqaro maydondagi o'rni va nufuzini mustahkamlash, tashqi siyosiy faoliyatni yanada samarali tashkil etish yuzasidan belgilangan yangi chora-tadbirlar haqida nimalar deya olasiz?

— Yangilangan "O'zbekiston — 2030" strategiyasi yangi O'zbekiston tashqi siyosatini xalq va davlat manfaatlarini yo'lida izchil amalga oshirish, Markaziy Osiyoda amaliy hamkorlikni sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish, shuningdek, an'anaviy hamkorlik bilan o'zaro manfaatli aloqalarni mustahkamlash va xalqaro hamkorlik geografiasini kengaytirishni nazarda tutadi.


Bu boradagi maqsadlarga erishish uchun yillar kesimida aniq chora-tadbir va maqsadlar belgilangan. Jumladan, O'zbekiston fuqarolari vizasiz kirishi mumkin bo'lgan mamlakatlari sonini 50 taga, soddalashtirilgan tartibda kirish mumkin bo'lgan davlatlarni esa 60 taga yetkazish, xorijiy davlatlardagi diplomatik va konsullik vakolatxonalarimiz orqali konsullik xizmatlaridan foydalanuvchilar sonini 60 mingtaga yetkazish maqsad qilingan. Bu esa vatandoshlarni tizimli qo'llab-quvvatlash hamda xorijda mehnat faoliyatini yuritayotgan fuqarolarga har tomonlama ko'maklashishni nazarda tutadi.

Shuningdek, tashqi siyosiy faoliyatning savdo-iqtisodiy va diplomatik jihatlariga alohida e'tibor qaratilayotir. Jumladan, O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari va Afg'oniston bilan o'zaro savdo hajmini 15 milliard dollargacha oshirish, xorijdagi diplomatik vakolatxonalar tarmog'ini 65 tagacha kengaytirish, faxriy konsulliklar sonini 30 taga yetkazish hamda Jahon savdo tashkilotiga to'laqonli a'zo bo'lish rejalashtirilgan.

Bundan tashqari, Yevropa, Osiyo-Tinch okeani mintaqasi va dunyoning boshqa muhim mintaqalaridagi davlatlar bilan strategik hamkorlik va iqtisodiy aloqalarni yanada mustahkamlash, Janubiy Osiyo, Yaqin Sharq, Afrika va Amerika qit'alarini bilan savdoni kengaytirish, investitsiyalar va ilg'or texnologiyalarni jalb qilish, global ishlab chiqarish va yetkazib berish zanjirlariga qo'shilish, transport va logistika koridorlarini rivojlantirish ko'zda tutilgan.

Umuman olganda, yangilangan "O'zbekiston — 2030" strategiyasidagi maqsad va vazifalar mamlakatning tashqi siyosatini rivojlantirishga qaratilgan keng qamrovli yondashuvni o'zida aks ettiradi. Bu esa mamlakatimizning xalqaro maydondagi nufuzini mustahkamlash va hamkorlik ko'lamin rivojlantirishga xizmat qiladi.

— Amaliyot shuni ko'rsatadiki, qabul qilingan davlat dasturlari va



O'ZBEKISTON 2030

"O'zbekiston — 2030" strategiyasi xalq manfaatlariga xizmat qiluvchi, ochiq, izchil va amaliy dastur sifatida mamlakat taraqqiyotida mutlaqo yangi sahifani ochmoqda.

strategiyalarning ijrosi ayrim hollarda kutilgan darajada ta'minlanmay qolishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, belgilangan maqsad va vazifalarning to'liq va samarali amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida zamonaviy monitoring va baholash tizimlari joriy etilmoqda.

— Ha, qabul qilingan davlat dasturlari va strategiyalarning ijrosi obyektiv sabablarga ko'ra kutilgan natijani bermasligi ham mumkin. Shu bois, belgilangan vazifalarning to'liq va samarali amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida zamonaviy monitoring va baholash tizimlari joriy etilmoqda.

Xususan, har bir ustuvor yo'nalish bo'yicha aniq indikatorlar, maqsadli ko'rsatkichlar va amalga oshirish muddatlari belgilab qo'yildi. Bajartilayotgan ishlar yuzasidan muntazam tahlil va hisobotlar tayyorlanadi, natijalar asosida zarur hollarda qo'shimcha chora-tadbirlar belgilanadi.

Shu bilan birga davlat organlari faoliyatining ochiqliqi va hisobotlari, parlament va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish orqali strategiya ijrosining shaffoligini va samaradorligini ta'minlanadi. Raqamli boshqaruv va nazorat platformalari joriy etiladi.

— Belgilangan barcha ustuvor maqsad va vazifalar izchil va to'liq amalga oshirilsa, 2030-yilga borib, O'zbekistonning iqtisodiy taraqqiyoti, ijtimoiy sohalar rivoji jihatdan aholi turmush darajasida sifat jihatidan qanday yangi o'zgarishlar kutilmoqda?

— "O'zbekiston — 2030" strategiyasida belgilangan barcha ustuvor maqsad va vazifalar izchil amalga oshirilsa, 52 ta kildagan muddatga borib, mamlakat taraqqiyoti sifat jihatdan yangi bosqichga chiqadi. Bunda, avvalo, milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishi ta'minlanib, yuqori qo'shimcha qiymat yaratadigan sanoat tarmoqlari, innovatsion texnologiyalar va raqamli iqtisodiyotning ulushi sezilarli darajada ortadi.

Shu bilan birga, yangi ish o'rinlari ochilishi, aholi daromadi oshishi va kambag'allik darajasining izchil qisqarishi aholi turmush darajasining sezilarli yaxshilanishiga xizmat qiladi. Ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy himoya tizimlaridagi islohotlar natijasida aholi uchun sifatli xizmatlardan foydalanish imkoniyati kengayadi. Natijada O'zbekiston mintaqada iqtisodiy jihatdan raqobatbardosh, investitsiyalar uchun jozibador va inson kapitali yuqori zamonaviy davlat sifatida o'z pozitsiyasini yanada mustahkamlaydi. Bularning barchasi xalqimizni taraqqiyot yo'lidagi umumiy maqsad atrofida jipslashtiradi. Ezgu orzular ro'yobi, qadamma-qadam erishadigan yutuqlarimiz yurtimizning har bir fuqarosi hayotida aks etadi.

Eng maqbul yo'l islohotchi ssenariydir. Agar naqd bo'lmagan to'lovlarni qabul qilish majburiyati qonun darajasida mustahkamlansa, QR-kod va chek tizimi kuchaytirilsa, iste'molchi huquqlari faol himoya qilinsa, 2026-2027-yillarda kuzatilmaydigan iqtisodiyot ulushi 22-25 foizgacha pasayishi mumkin.

2026-yil 26-mart, 58-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

YASHIRIN IQTISODIYOT

FAQAT NAZORAT VA JAZOGA TAYANGAN ISLOHOT NATIJA BERMAydi

Tahlil

2017-2026-yillar davomida kechayotgan keng ko'lamli islohotlar qator ijobiy natijalar berdi. Iqtisodiyot ochildi, ishlab chiqarish hajmlari va eksport salohiyati kengaydi, raqamli texnologiyalar davlat boshqaruvi va xo'jalik yuritish tizimiga bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Bu jarayonlar mamlakatimiz iqtisodiy makonini xalqaro standartlarga yaqinlashtirishda muhim qadam bo'ldi.



Durbek HUSANOV,
iqtisodiyot fanlari doktori,
professor

Biroq iqtisodiy rivojlanishning sof samarasi va uzoq muddatli barqarorligi hali to'liq ta'minlangan deb bo'lmaydi. Iqtisodiyotning muayyan qismi norasmiy va yashirin faoliyat doirasida qolib ketayotgani davlat moliyasi, soliq tushumlari va ijtimoiy kafolatlar tizimi uchun jiddiy xavf omillarini yuzaga chiqarmoqda. Yashirin iqtisodiyotning keng qamrovi nafaqat byudjet barqarorligiga putur yetkazadi, balki mehnat munosabatlari shaffofligini pasaytiradi, ijtimoiy adolat prinsiplarini izdan chiqaradi.

Yurtimizda mazkur muammo bir necha yildan buyon davlat yisoyati darajasida tizimli o'rganib kelinmoqda. Xususan, kuzatilmaydigan iqtisodiyot ulushini aniqlash va ta'sirini baholash bo'yicha rasmiy statistik tahlillar qayta ko'rib chiqilayotgan hajmlar orqali yangicha yondashuvlar asosida amalga oshirilmoqda. Bu jarayon iqtisodiyotdagi real aylanmalarni aniqlash, soliq bazasini kengaytirish va ijtimoiy majburiyatlarning moliyaviy manbalarini mustahkamlash nuqtayi nazaridan alohida ahamiyat kasb etadi. Texnik jihatdan kuzatib borilishi oson bo'lmagan ushbu sektorning ta'siri faqat makroiqtisodiy ko'rsatkichlar bilan cheklanib qolmaydi. U soliq tushumlari barqarorligiga, mehnat bozori shaffofligiga, aholing pensiya va ijtimoiy kafolatlar bilan qamrab olinishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, kuzatilmaydigan iqtisodiyot masalasi bugun nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy adolat va davlat boshqaruvi samaradorligi bilan bog'liq strategik muammo sifatida kun tartibiga chiqmoqda.

Iqtisodiy aylanmaning uchdan bir qismi

Iqtisodiy statistikada odatda uchta asosiy tuzilma farqlanadi. Birinchisi rasmiy, to'liq hisobga olingan iqtisodiyot bo'lib, unda barcha faoliyat turlari, soliq to'lovlari va mehnat munosabatlari qonun doirasida yuritiladi va statistikada aks ettiriladi. Bu iqtisodiyot davlat uchun eng shaffof va boshqarish oson bo'lgan sektor hisoblanadi.

Ikkinchi tuzilma norasmiy iqtisodiyotdir. U asosan uy xo'jaliklari, jismoniy shaxslar, ro'yxatdan o'tmagan kichik xizmatlar, vaqtinchalik yoki kafolatsiz mehnat faoliyatlarini o'z ichiga oladi. Bu yerda iqtisodiy harakat bor, lekin u to'liq rasmiylashtirilmagan, soliq va ijtimoiy tizim bilan uzviy bog'lanmagan.

Uchinchi toifa — yashirin iqtisodiyot. Bu esa rasmiy subyektlar tomonidan daromadlarni yashirish, hisobotlarni kamaytirish, soliqdan qochish yoki qonunga zid iqtisodiy faoliyat yuritish bilan bog'liq. Aynan shu segment iqtisodiy adolat va raqobat muhitiga eng katta zarba beradi.

Kuzatilmaydigan iqtisodiyot tushunchasi aynan shu norasmiy va yashirin sektorlar yig'indisidir. U rasmiy hisobotlarda to'liq aks etmaydi, statistikada esa bilvosita usullar orqali baholanadi. Shu bois, uning haqiqiy hajmi va ta'siri ko'pincha jamoatchilik e'tiboridan chetda qolib keladi.

Islohotlar, raqamlashtirish va nazorat mexanizmlari kuchayib borayotganiga qaramay, kuzatilmaydigan iqtisodiyot ulushi hali ham yuqori darajada saqlanib qolmoqda. Bu holat tasodifiy emas. U iqtisodiyotning tarkibiy xususiyatlari, institutsional muhit va iqtisodiy rag'batlar bilan uzviy bog'liq bo'lgan qator omillar natijasidir.

Daromad bor, lekin... Mamlakatimiz iqtisodiyotida kichik biznes, yakkalashgan mehnat va shaxsiy xizmatlar salmoqli o'rin tutadi. Mahalliy bozorlardagi chakana savdo, uy sharoitidagi ta'mirlash, xizmat ko'rsatish, mavsumiy qishloq xo'jaligi

ishlari ko'p hollarda to'liq rasmiylashtirilmaydi. Bu faoliyat iqtisodiy jihatdan jonli, lekin statistik jihatdan "ko'rinmas" bo'lib qolmoqda. Aynan shu omil norasmiy sektorning ulushini oshiradi. Iqtisodiy harakat bor, daromad bor, ammo u davlat hisob-kitob tizimiga to'liq kirmaydi. Natijada rasmiy iqtisodiy manzara bilan real hayot o'rtasida tafovut paydo bo'ladi. Ikkinchi muhim sabab ma'muriy yuklamalar. Ayniqsa, mikrobiznes va yangi boshlanayotgan tadbirkorlar uchun soliq hisobotlari, litsenziyalar, ruxsatnomalar va turli hisobot talablari hali-hamon murakkab deb qabul qilinadi. Bu esa rasmiy iqtisodiyotga kirishni emas, balki uni chetlab o'tishni osonroq yo'l sifatida ko'rsatadi.

Aslida, qonun doirasida ishlash xavfsiz va barqaror bo'lishi kerak. Ammo amalda rasmiylashtirish ortiqcha vaqt, xarajat va tekshiruvlar bilan bog'lansa, tadbirkor norasmiy maydonda qolishni ma'qul ko'radi.

Kuzatilmaydigan iqtisodiyotning eng jiddiy va ijtimoiy jihatdan og'ir oqibatlaridan biri yashirin va norasmiy bandlikdir. Rasmiy statistikada ish bilan band aholi soni yil sayin o'sib borayotgandek ko'rinsa-da, amalda mehnat bozorining salmoqli qismi norasmiy munosabatlarga tayananotgani kuzatilmoqda.

Norasmiy bandlik qisqa muddatda aholi uchun daromad manbai bo'lishi mumkin. Ammo uzoq muddatli oqibatlari ancha og'ir bo'ladi. Kexsa yoshda ijtimoiy ta'minotga muhtojlik ortadi, mehnat muhofazasi va xavfsizlik standartlari pasayadi, kambag'allik xavfi institutsional tus oladi. Shu ma'noda, kuzatilmaydigan iqtisodiyot kelajakda davlat zimmasiga tushadigan ijtimoiy yuk demakdir.

Raqamlashtirish — eng yaxshi usul

Agar kuzatilmaydigan iqtisodiyotga qarshi kurashda eng samarali vositani ajratib ko'rsatish lozim bo'lsa, bu, shubhasiz, raqamlashtirishdir. 2025-yilda naqd bo'lmagan to'lovlari ulushi sezilarli darajada oshdi. Bank kartalari, QR-kodlar va mobil to'lov ilovalari orqali hisob-kitoblar kengayib bormoqda. Bu tendensiya tranzaksiyalarni qayd etishi osonlashtiradi, soliq va statistik ma'lumotlari sifatini oshiradi, yashirin aylanmalarni qisqartirish uchun real asos yaratadi.

Onlayn nazorat-kassa mashinalari real vaqt rejimida cheklarni soliq organlariga uzatish imkonini berdi. Biroq amaliyot ko'rsatadiki, ayrim hollarda chek berilmagligi yoki naqd pul orqali yashirin hisob-kitoblar saqlanib qolmoqda. Shu bois, texnik yechimlar bilan birga iste'molchining chek talab qilish madaniyatini shakllantirish hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasiga ko'ra, yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashda faqat davlat yoki soliq organlari emas, balki iste'molchi ham hal qiluvchi rol o'ynaydi. Agar fuqaroga chek olmasa, naqd pul bilan hisob-kitob qilishni ma'qul ko'rsa, u bilvosita yashirin iqtisodiyotni ko'llab-quvvatlagan bo'ladi.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida yashirin iqtisodiyotga qarshi kurash yo'li, avvalo, jazolovchi soliq tekshiruvlaridan emas, balki iste'molchi huquqlarini himoya qilish orqali boshlangan. Agar tadbirkor oldindan karta, QR-kod yoki elektron to'lov usulini qabul qilishini bildirgan bo'lsa, amalda bundan bosh tortsa, bu holat "chalqituvchi" yoki adolatga zid savdo amaliyoti sifatida baholalanadi.

Bunday yondashuv iste'molchiga shikoyat qilish, kompensatsiya talab etish va nazorat organlarini jalb etish uchun to'liq huquqiy asos yaratadi. Eng muhimi, davlat va yerda



faqat jazolovchi subyekti emas, balki qonun doirasida ishlaydigan munosabatlar tizimini shakllantiruvchi institut sifatida namoyon bo'ladi. Iste'molchi esa passiv kuzatuvchi emas, balki shaffoflikni ta'minlashda faol ishtirokchiga aylanadi.

International Monetary Fund va World Bank hisobotlarida O'zbekiston kabi iqtisodiyotlar uchun bir xil tamoyillar tavsiya etiladi: raqamli to'lovlarni kengaytirish, soliq ma'murchiligini soddalashtirish va norasmiy bandlikni ijtimoiy himoya tizimiga bosqichma-bosqich integratsiya qilish. Bu yondashuvlar jazoga emas, balki tizimli rag'batga tayanadi.

Shu bois, chek talab qilishni oddiy fuqarolik burchi sifatida shakllantirish, chek olganlik uchun rag'batlantiruvchi mexanizmlar — keshbek, lotereya yoki soliq bonuslari joriy etish samarali bo'lishi mumkin. Ayniqsa, yoshlar orasida raqamli to'lovlarga tez moslashish bu yo'nalishda katta imkoniyat yaratadi.

Kelgusi yillar uchun bir nechta ehtimoliy ssenariy mavjud. Inersion ssenariyda kuzatilmaydigan iqtisodiyot ulushi 28-30 foiz atrofida saqlanib qolishi mumkin. Faqat jazo va tekshiruvlarga tayangan qat'iy nazorat ssenariysi esa kichik biznesni yanada yashirinlikka undab, ijtimoiy qarshilikni kuchaytiradi.

Eng maqbul yo'l islohotchi ssenariydir. Agar naqd bo'lmagan to'lovlarni qabul qilish majburiyati qonun darajasida mustahkamlansa, QR-kod va chek tizimi kuchaytirilsa, iste'molchi huquqlari faol himoya qilinsa, 2026-2027-yillarda kuzatilmaydigan iqtisodiyot ulushi 22-25 foizgacha pasayishi mumkin.

Kuzatilmaydigan iqtisodiyot ulushi yuqori bo'lgan sharoitda soliq yuki tabiiy ravishda rasmiy sektor zimmasiga tushadi. Bu esa halol ishlayotgan tadbirkorlar uchun raqobat sharoitini og'irlashtiradi, davlat byudjeti imkoniyatlarini esa cheklaydi. Natijada ta'lim, tibbiyot, infratuzilma va ijtimoiy dasturlar uchun ajratiladigan resurs yetarli darajada shakllanmaydi.

Toshkent shahri misolida qayd etilgan yillik 7,5 trillion so'm atrofida yo'qotish — bu abstrakt raqam emas. Bu mablag' o'nlab maktab yoki shifoxonalar qurilishi, minglab yangi ish o'rinlari yaratilishi mumkin bo'lgan real imkoniyatlarni anglatadi.

Norasmiy ish bilan band aholi ijtimoiy himoya tizimidan amalda chetda qoladi. Ular pensiya staji to'plamaydi, kasallik yoki baxtsiz hodisalardan sug'urtalanmagan bo'ladi, mehnat huquqlarini himoya qilish imkoniyatlariga ega emas. Uzoq muddatda esa aynan shu qatlam ijtimoiy yordamga eng muhtoj toifaga aylanib, davlat uchun qo'shimcha ijtimoiy yukni yuzaga keltiradi.

Kuzatilmaydigan iqtisodiyotning yuqori ulushi makroiqtisodiy ko'rsatkichlari sifatini ham pasaytiradi. Yalpi ichki mahsulot o'sishi to'liq aks ettirilmaydi, mehnat unumdorligi sun'iy ravishda past ko'rsatiladi, davlat siyosati samaradorligi haqida noto'g'ri xulosalar chiqarilishi mumkin. Bu esa strategik qarorlar qabul qilishda jiddiy xatolarga olib keladi.

Raqamlar haqiqiy mazmun kasb etishi kerak

Yuqoridagi tahlillar ko'rsatadiki, eng to'g'ri va samarali yo'l jazo, rag'bat va raqamlashtirish mexanizmlarini uyg'un qo'llashdir. Faqat nazorat yoki jazoga tayangan siyosat kutilgan natijani bermaydi. Aksincha, rasmiylashtirish iqtisodiy jihatdan manfaatli qilish talab etiladi.

Avvalo, savdo va xizmat ko'rsatish subyektlarining qonunchilikda belgilangan naqd bo'lmagan to'lov vositalarini qabul qilishi majburiy ekanini aniq va bir ma'noli norma sifatida mustahkamlanishi lozim. Bu shaffoflikni istisno emas, balki iqtisodiy munosabatlarning umumiy qoidasiga aylantiradi.

To'lovlari faqat tadbirkorlik subyekti yoki soliq to'lovchi nomi bilan bog'langan hisoblar orqali qabul qilinishi shart. Shaxsiy karta va uchinchi shaxs hisobidan foydalanishni cheklash yashirin aylanmalarni qisqartirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Naqd bo'lmagan to'lovlari ulushi yuqori bo'lgan tadbirkorlar uchun soliq ma'murchiligini soddalashtirish, tekshiruvlar sonini qisqartirish, kreditlar va davlat dasturlarida ustuvorlik berish kabi rag'batlar samarali instrument bo'lishi mumkin. Bu rasmiylashtirish majburiyat emas, iqtisodiy afzallikka aylantiradi.

Agar ushbu siyosatlar bosqichma-bosqich joriy etilsa, qisqa muddatda naqd bo'lmagan to'lovlari ulushi oshadi, statistik hisob-kitoblar aniqlashadi. O'rta muddatda soliq bazasi kengayadi, ijtimoiy sug'urta qamrovi sezilarli darajada oshadi. Uzoq muddatda esa kuzatilmaydigan iqtisodiyot ulushi 30 foizdan 20-22 foiz atrofida pasayishi, davlat va jamiyat o'rtasida institutsional ishonch mustahkamlanishi mumkin.

Kuzatilmaydigan — norasmiy va yashirin iqtisodiyot yechimi kechiktirib bo'lmaydigan strategik masaladir. Uni faqat nazorat yoki jazo orqali emas, balki iste'molchi huquqlarini himoya qilish, raqamli to'lovlarni kengaytirish, tadbirkorlar uchun rag'batlar yaratish va shaffof statistik orqali hal etish mumkin.

Eng muhimi, davlat iqtisodiyotni "qattiq nazorat qilish" yo'lini emas, balki uni rasmiylashtirishga manfaatli qilish strategiyasini tanlashi lozim. Ana shunda kuzatilmaydigan iqtisodiyot pasayadi, rasmiy iqtisodiy o'sish esa haqiqiy mazmun bilan to'ladi.

Kuzatilmaydigan iqtisodiyot faqat iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan cheklanadigan muammo emas. U siyosiy ishonch, ijtimoiy adolat va davlat boshqaruvi samaradorligi bilan bevosita bog'liq kompleks masaladir. Shu bois, uni bartaraf etish faqat soliq organlari yoki alohida davlat idoralari zimmasiga yuklanmasligi, balki davlat organlari, jamoatchilik, xususiy sektor va xalqaro hamkorlar o'rtasidagi o'zaro integratsiyalangan harakatlarni talab qiladi.

Raqamlashtirishni chuqurlashtirish, iste'molchi huquqlarini himoya qilish, tadbirkorlar uchun iqtisodiy rag'batlar yaratish va maqsadga yo'naltirilgan ma'muriy choralarni qo'llash kuzatilmaydigan iqtisodiyotni qisqartirishda eng samarali yechimlar qatoriga kiradi. Biroq bu choralar samara berishi uchun ular shaffoflik, ochiq ma'lumotlar, ommaviy monitoring va ishonchli statistika bilan uyg'unlashtirilishi shart.

Eng muhimi, davlat siyosati jazo va rag'batni mutanosib uyg'unlashtirgan, mahalliy iqtisodiy sharoitlar, hududiy farqlar va texnik imkoniyatlarni hisobga olgan holda bosqichma-bosqich amalga oshirilishi lozim. Ana shundagina iqtisodiy faoliyatni soydan chiqarish majburiyat emas, manfaatli tanlovga aylanadi. Bu esa yangi O'zbekiston uchun barqaror iqtisodiy o'sish, ijtimoiy adolat va institutsional ishonchni mustahkamlashning eng to'g'ri yo'lidir.

Kuzatilmaydigan iqtisodiyot iqtisodiy o'sish sifatini belgilaydigan, ijtimoiy adolatga ta'sir qiluvchi va davlat bilan fuqaro o'rtasidagi ishonchni shakllantiruvchi asosiy omillardan biridir. Mazkur muammoni hal qilish faqat soliq yoki statistika emas, balki davlat boshqaruvi, raqamlashtirish, iste'molchi huquqlari va ijtimoiy siyosat uyg'unligi masalasidir. Agar iqtisodiy faoliyatni yashirishdan ko'ra rasmiylashtirish foydali bo'lsa, kuzatilmaydigan iqtisodiyot tabiiy ravishda qisqaradi. Ana shunda rasmiy iqtisodiy o'sish raqamlar emas, haqiqiy mazmun bilan to'ladi.



Munosabat



MIS KLASTERI VA ZAMONAVIY MUHANDISLIK TAFAKKURI

So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotida xomashyoga yo'naltirilgan modeldan bosqichma-bosqich voz kechilib, tayyor, yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishga asoslangan yangi taraqqiyot yo'li shakllanmoqda. Bu jarayon markazida mamlakat sanoatining lokomotivi hisoblangan rangli metallurgiya, xususan, mis sanoati muhim o'rin tutadi.

2026-yil 16-mart kuni Olmaliq shahrida yangi mis boyitish fabrikasi (3-MBF) birinchi navbatining ishga tushirilishi nafaqat sohada, balki butun milliy iqtisodiyotda muhim va tarixiy voqea sifatida qayd etildi. Ushbu marosimda Prezidentimiz ishtirok etgani loyihaning yuksak davlat ahamiyatiga ega ekanini yana bir bor tasdiqladi. Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, mazkur majmua shunchaki yangi ishlab chiqarish quvvati emas, balki yangi O'zbekiston sanoati salohiyati va zamonaviy yondashuvlarining amaliy ifodasidir.

Fabrikaning ishga tushirilishi mamlakatimizda rangli metallurgiyani yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi. Ayniqsa, mis xomashyosini chuqur qayta ishlash, eksportbop va yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini oshirish uchun mustahkam zamin yaratadi.

Tahlillarga ko'ra, yangi fabrika ishga tushirilishi natijasida yiliga bir necha million tonna ruda qayta ishlanib, mis konsentrati ishlab chiqarish hajmi sezilarli darajada ortishi kutilmoqda.

Olmaliq kon-metallurgiya kombinati negizida amalga oshirilayotgan ushbu yirik loyiha doirasida umumiy qiymati milliardlab dollarga teng investitsiya jalb etilgan. Bu esa mis ishlab chiqarish hajmini 1,5-2 barobar oshirish, eksportbop mahsulotlar ulushini kengaytirish hamda minglab yangi ish o'rinlarini yaratish uchun mustahkam zamin yaratmoqda.

Bugungi global iqtisodiyotda mis oddiy xomashyo emas, balki strategik



Sunnatilla G'OIYIBNAZAROV,
texnika fanlari doktori

zaxiralari va ulardan samarali foydalanish imkoniyatlarini aniq belgilab oldik".

Yangi fabrika zamonaviy innovatsion texnologiyalar va ilg'or muhandislik yechimlarining yorqin namunasidir. Milliardlab dollarlik investitsiya asosida qad rostlagan bu majmua yuqori energiya samaradorligi va ekologik xavfsizlik ko'rsatkichlari bilan ajralib turadi. Loyihaning asosiy falsafasi xomashyodan tayyor mahsulotgacha bo'lgan to'liq qiymat zanjirini shakllantirishdan iborat.

Tahlillarga ko'ra, yangi fabrika ishga tushirilishi zanjirli ta'sir orqali yangi sanoat klasterlari shakllanishiga, elektronika,



ahamiyatga ega resurs sifatida baholanmoqda. "Yashil iqtisodiyot"ga o'tish jarayonlari, elektromobillar sanoatining jadal rivojlanishi va qayta tiklanuvchi energiya manbalariga talab ortishi misga bo'lgan ehtiyojni keskin kuchaytirmoqda. Masalan, bita elektromobil ishlab chiqarish uchun an'anaviy avtomobilga nisbatan qariyb to'rt barobar ko'proq mis talab etiladi. Taxminlarga ko'ra, 2030-yilga borib, jahonda ushbu metalga talab kamida 40 foiz oshadi.

Bunday sharoitda O'zbekiston boq tabiiy resurslari, xususan, mis zaxiralari bilan jahon bozorida nafaqat xomashyo yetkazib beruvchi, balki yuqori texnologiyali mahsulotlar ishlab chiqaruvchi qudratli sanoat markaziga aylanish imkoniyatiga ega. Mamlakatimiz mis zaxiralari bo'yicha mintaqada yetakchi o'rinlarni egallashi esa bu yo'nalishdagi strategik ustunlikni yanada mustahkamlaydi.

Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek: "Kimki mis sanoatida yuqori qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish, o'zaro manfaatli hamkorlikni mustahkamlash, milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish va barqaror taraqqiyotni ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Yangi O'zbekistonda sanoat taraqqiyoti endi faqat tabiiy resurslarga emas, balki bilim, innovatsiya va ilg'or texnologiyalarga tayanadi. Olmaliq tajribasi esa mamlakat sanoatini rivojlantirishga qaratilgan yaxlit va samarali modelning amaliy namunasidir.

mashinasozlik va energetika tarmoqlari uchun zarur mahalliy butlovchi qismlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishga mustahkam zamin yaratadi.

Shu nuqtayi nazaridan, Olmaliqda ishga tushirilgan 3-mis boyitish fabrikasi nafaqat iqtisodiy o'sish, balki texnologik va ilmiy taraqqiyot uchun ham muhim driver vazifasini bajaradi.

Fabrika yangi O'zbekiston sanoat siyosatining yorqin amaliy ifodasi, iqtisodiy o'sishning muhim nuqtasi va innovatsion rivojlanish platformasi hisoblanadi. Eng muhimi, bunday yirik loyihalar ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi integratsiyani yangi bosqichga olib chiqib, yuqori malakali muhandis kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirishga xizmat qilmoqda.

Nuqtayi nazar

Bu yil bahor faslining dastlabki oyi mamlakatimiz hayotida olamshumul voqealarga boy bo'ldi. Xususan, O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazining ochilishi, qaytadan bunyod etilgan Imom Buxoriy majmuasi, muborak Ramazon hayiti va Navro'z ayyomi xalqimizga yanada ko'tarinki ruh, shodu xurratlik va shukronalik hissini baxsh etdi.



YANGILANISH FASLIGA MONAND BUNYODKORLIK VA ULUG'VORLIK IFODASI

Joriy yil 17-mart kuni Prezidentimiz O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazining rasmiy ochilishi hamda iftorlik marosimida ishtirok etdi. Tadbir avvalida davlatimiz rahbari butun xalqimizni muborak Ramazon oyi bilan yana bir bor qutladi. Hozirgi g'oyat tahlikali zamonada tinchlik naqadar ulug' va bebaho ne'mat ekanini, 38 milliondan ziyod aholimiz yagona xalq, ahil bir oila bo'lib yashayotgani eng katta boyligimiz ekanini chuqur his etish zarurligini ta'kidladi.

Ramazon hayiti arafasida O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazining ochilishi nafaqat xalqimiz, balki butun dunyo musulmonlari uchun munosib tuhfa bo'ldi. Ushbu betakror va buyuk majmua — mamlakatimizning uch ming yillik shonli tarixi va boy madaniyati, yangi O'zbekiston imkoniyatlarining yorqin ko'zgu.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, bu maskan bilan tanishgan har bir odam, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz islom dinining gumanistik mohiyatini anglab yetadi, o'zining qanday ulug' meros egasi ekanini his etib, qalbi g'urur va iftixorga to'ladi.

Islom sivilizatsiyasi markazi 2025-yilning o'zidayoq minglab xorijiy mehmonlarda katta qiziqish uyg'otgan, ular orasida qator davlatlar Prezidentlari, parlament va hukumat rahbarlari, deputat va senatorlar, vazirlar, elchilar, ilmlar va jamoat arboblari, diniy tashkilotlar rahnamolari borligi e'tirof bo'ldi. Loyihalash, qarish va zamonaviy axborot texnologiyalari bilan jihozlashda Fransiya, Xitoy, Buyuk Britaniya, AQSH, Birlashgan Arab Amirliklari, Rossiya, Turkiya, Germaniya, Ispaniya, Italiya, Malayziya, Ozarbayjon, Saudiya Arabistoni, Hindiston, Markaziy Osiyo davlatlari va boshqa mamlakatlardan malakali mutaxassislar qatnashgani ham inshootning mahobatidan dalolat beradi.

Prezidentimizning Pariyq tumanida qaytadan bunyod etilgan Imom Buxoriy majmuasiga tashrif ham yurdoshlarimiz va dunyo musulmonlarining e'tibori markazida bo'ldi. Yangi O'zbekistonning durdonasi bo'lgan bu majmuaning qoq markazidan buyuk hadisshunos bobomizning tabarruk maqbarasi o'rin olgan. 14 ta moviy gumbaz, 75 metrl 4 ta minora qadamjoga ulug'vor qiyofa bag'ishlandi.

Imom Buxoriy majmuasida ulkan bunyodkorlik va obodonlashtirish ishlari bajarilib, ziyoratchilar uchun har tomonlama qulay sharoit yaratildi. Natijada ilgari ziyoratgohda bir kunda 12 ming kishiga xizmat ko'rsatilgan bo'lsa, hozir kunda 65 ming ziyoratchini qabul qilish quvvatiga ega bo'ldi. Majmua hududida turizm markazi ochildi. Yondosh 15 gektar maydonda zamonaviy infratuzilma, shina mehmonxonalar, xizmat ko'rsatish shoxobchalarini barpo etildi. 10 ming kishiga mo'ljallangan ulkan masjid, ma'muriyat binosi, 154 ustunli, milliy uslubdagi muhtasham ayvon qurildi.

Navro'z bu yil ana shunday buyuk tarixiy voqealar bilan birga muborak Ramazon hayiti bilan uyg'un kelgani alohida ahamiyat kasb etdi. Butun yurtimiz bo'ylab nishonlangan bayram shodiyonalari "Navro'zni ulug'lash — insonni ulug'lashdir!" degan ezgu tamoyilga hamohang bo'ldi.

Navro'z tabiatning yangilanishiga monand inson qalbidagi ezgu niyatlar, saxovat va bag'rikenglik tuyg'ulari yanada kuchayadigan



Baxtiyor PO'LATOV,
Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishini o'rganish universiteti rektori, texnika fanlari doktori, professor

qutlug' ayyom. Milliy qadriyatlarimizni yorqin ifoda etib, jamiyatda birlik va hamjihatlikni mustahkamlaydi, tabiatni asrash, inson qadriini ulug'lashga da'vat qiladi.

Shunday shukuhli kunlarda butun borliq jonlanishiga hamohang odamlar ham faol harakata keldi. Hududlarda keng miqyosli obodonlashtirish va ko'lamzorlashtirish ishlari bajarildi. Zero, Navro'z falsafasida milliy qadriyatlar, xalqimizga xos fazilatlar bilan birga atrof-muhitni ko'z qorachig'idek asrab-ayaylash g'oyasi mujassam.

Ona zaminga mehr va ehtirom ko'rsatish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, yoshlarni tabiatga muhabbat ruhida tarbiyalash, ekologik madaniyatni yuksaltirishga alohida



e'tibor qaratish bugun har qachongidan ham muhim.

Bu jihatlar Prezidentimizning shu yil 23-mart kuni ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida 2026-2030-yillarga mo'ljallangan ustuvor umummilliy loyihalar yuzasidan taqdimot bilan tanishuvida ham alohida qayd etildi. Taqdimotda atmosfera havosining sifatini yaxshilash, shahar va hududlarda yashil maydonlarni kengaytirish, ekologik ta'lim va madaniyatni yuksaltirish, shuningdek, cho'llanishga qarshi kurashishning ilmiy va amaliy asoslarini mustahkamlashga qaratilgan tashabbuslar ko'rib chiqildi.

E'tiborli jihat, poytaxtimizda Milliy dendrologiya bog'ini barpo etish konsepsiyasi taqdimoti ham o'tkazildi. 108 gektar bo'lishi belgilangan ushbu yirik yashil hududda 50 ming tup daraxt ko'chati va 100 ming tup buta ekilishi nazarda tutilmoqda. Tabiiyki, bunday katta hajimli "tabiat o'pkasi"ga ega park biologik xilmaxillikni saqlash, havo sifatini yaxshilash, uglerod yutilishini oshirish, ilmiy tadqiqot va seleksiya ishlari yo'lga qo'yish, shuningdek, shahar mikroiklimini sog'lomlashtirishga xizmat qiladi. Soddaroq aytganda, bog' havo haroratini 2-4 daraja pasaytirib, namlikni 10-15 foiz oshirishi mumkin.

Qayd etilganidek, Milliy dendrologiya bog'i faqat ko'kalazor hudud bo'lmaydi. Bu yer ilmiy, ma'rifiy va jamoatchilik makoni sifatida ham shakllantiriladi. Bog'ning markaziy qismida 1 gektarli sun'iy ko'l va atrofiga sakura bog'i barpo etiladi. Bu yer universitetimiz uchun tabiiy laboratoriya, aholi uchun esa bioturizm va ekoturizm markaziga aylanadi.

"Ekomadaniyat" umummilliy loyihasi doirasida ekologik ta'lim, ilm-fan va targ'ibotni o'zaro bog'lagan holda yangi tizim yaratiladi. Mazkur sohada xalqaro standartlarga mos mutaxassislar yetishmayotgani, aholi o'rtasida ekologik ong va barqaror odatlar hali yetarli darajada shakllanmagan, innovatsiya va iqlim texnologiyalarini amaliyotga joriy qila oladigan kadrlar taqchilligi munosabati bilan 2026/2027-o'quv yilidan boshlab 14 hududda

"yashil texnikumlar" tashkil etilib, ular ham universitetimiz tizimiga akademik hamkorlik asosida birlashtirilishi belgilandi.

Loyihaga ko'ra, tayyorlanadigan o'quvchi va talabalar soni yil sayin oshirilib, 2028/2029-o'quv yiliga borib, 10 mingga yetkaziladi. Bakalavriat va magistraturada atrof-muhit va barqaror boshqaruv, "yashil iqtisodiyot", atrof-muhit muhandisligi, iqlim o'zgarishi, cho'llanishga qarshi kurashish, barqaror shaharsozlik, barqaror energiya almashinuvi kabi yangi yo'nalishlar ochildi. Ta'lim jarayonida dual tizim joriy qilinib, nazariy bilim bilan amaliyot uyg'unlashtirildi. Universitet ta'lim tizimini rivojlantirish, ilmiy-innovatsion loyihalar va targ'ibot ishlari uchun katta miqdordagi mablag' ajratish ko'zda tutilgan.

Shu bilan birga, taqdimotda cho'llanishga qarshi kurash strategiyasi loyihasi ham alohida ko'rib chiqildi. Ushbu loyihaga alohida to'xtalotimiz boisi shuki, mazkur yo'nalish bo'yicha universitetimizga katta mas'uliyat yuklandi. Xususan, yurtimiz hududining 70 foizi arid (juda quruq iqlimga ega) zonadan iborat. Yerning 70 foizdan ortig'i degradatsiyaga uchragan. Bu iqtisodiyotga har yili 830 million dollar zarar keltirmoqda. Orol dengizining quishi natijasida 3 million gektar maydon yaroqsiz holga kelgan va hududning 56 foizi shamol eroziyasi ta'siri ostida qolgan.

Shu munosabat bilan universitetimiz huzurida mintaqaviy qo'shma ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish taklif qilindi. Ushbu markaz cho'llanishni boshqarish bo'yicha Markaziy Osiyodagi birinchi ilmiy xabga aylinishi kutilmoqda. Markaz tarkibida 15 ta ixtisoslashgan laboratoriya faoliyat yuritadi. Shu munosabat bilan universitetimiz zondlash texnologiyalari asosida yer holatini raqamli monitoring qilish yo'lga qo'yiladi. Qurg'oqchilikka chidamli o'simliklar bo'yicha genetik bank shakllantiriladi. Tuproqning kimyoviy va fizikaviy tahlil tizimi takomillashtiriladi. Natijada cho'llanishni prognoz qilish va xaritalash milliy tizimi yaratiladi. Orolbo'yi va qurg'oqchil hududlarda yashil qoplama hududi kengaytiriladi. Yashilzorlar barqaror foydalanish hamda cho'l iqtisodiyoti modellari joriy etiladi.

Kelajakda hamma soha ekologiya bilan hamohang bo'ldi. Prezidentimizning 2023-yil 31-maydagi qarori asosida tashkil etilgan Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishini o'rganish universitetida zamonaviy ekologik yo'nalish qamrab olingan. Mazkur oliy ta'lim muassasasi butun faoliyati atrof-muhitni muhofaza qilish, barqaror rivojlanish va iqlim o'zgarishlari sohasida yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashga qaratilgan mintaqadagi ilk ixtisoslashgan universitetdir. Oliyohda atrof-muhit va barqaror boshqaruv, atrof-muhit va iqtisodiyot, ekologiya va davlat boshqaruvi, barqaror rivojlanish, barqaror moliya, ekologiya huquqi, atrof-muhit sohasida omnaviy kommunikatsiyalar yo'nalishlari ochildigan. O'quv jarayoni kredit-modul tizimi asosida o'zbek, rus va ingliz tillarida olib boriladi.

Zero, yoshlarimizning ekologiya yo'nalishlari bo'yicha oliy ma'lumot olishi, bilimli, malakali va raqobatbardosh kadrlar bo'lishi tabiatni asrash, atrof-muhitni muhofaza qilish, davlat va jamiyat rivoji uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Konferensiya

ILMIY DIPLOMATIYA RIVOJI

XALQLARIMIZ O'RTASIDAGI BIRODARLIK RISHTALARIGA XIZMAT QILADI

Keyingi yillarda Markaziy Osiyo mintaqasida siyosiy, iqtisodiy, madaniy aloqalar bilan birga ilm-fanning turli sohalarida hamkorlik yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Kuni kecha O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tomonidan tashkil etilgan O'zbekiston va Tojikiston olimlarining ilmiy-amaliy konferensiyasida bu yana bir bor isbotini topdi.



Ushbu nufuzli tadbir ikki mamlakat o'rtasidagi ilmiy hamkorlikni mustahkamlash, dolzarb muammolar yuzasidan fikr almashish hamda qo'shma innovatsion loyihalarni rivojlantirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatli.

Akademiklar, yetakchi olimlar, yosh tadqiqotchilar ishtirok etgan ilmiy-amaliy konferensiyada fizika, matematika va texnika fanlari yo'nalishlarida hamkorlik istiqbollari ko'rib chiqildi. Yuqori texnologiyalar va fundamental ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratildi. Jumladan, sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalarni rivojlantirish, ularni iqtisodiyot va sanoatda qo'llash, yadro texnologiyalari, seysmologiya, zilzilalarni prognozlash hamda muhandislik tadqiqotlari asosida infratuzilmani mustahkamlash masalalari muhokama etildi.

— Tojikiston — qo'shni mamlakat. Ham ilmiy, ham iqtisodiy masalalarimiz bir-biriga o'xshab ketadi, — deydi O'zbekiston Fanlar akademiyasi Materialshunoslik instituti direktori Odilxo'ja Parpiyev. — Masalan, energetika ham iqtisodiyot, ham ijtimoiy sohada muhim ahamiyatga ega va davlatlarimizning ustuvor yo'nalishlari qatoriga kiradi. Shu bois, biz O'zbekistonda ishlab chiqarilgan ba'zi texnologiya, ishlanmalarni birgalikda oxiriga yetkazish va ikki mamlakatda birdek qo'llash taklifini beryapimiz. Zero, ikkala yurt ham quyosh nurlariga boy. Bundan tashqari, Tojikiston katta suv zaxiralarga ega. Agar biz quyosh energiyasidan foydalanib, suvni parchalab vodorod olish texnologiyasini yo'lga qo'ysak, energetika sohasidagi katta muammoga yechim topgan bo'lamiz.

Anjumanda, shuningdek, inson salomatligi va atrof-muhit bilan bog'liq muhim masalalar ko'rib chiqildi. Biotexnologiya va zamonaviy tibbiyot yutuqlari, immunogenetika sohasidagi ilmiy tadqiqotlar va ularning amaliy ahamiyati, qishloq xo'jaligida samaradorlikni oshirish, ekologik muvozanatni saqlash hamda barqaror rivojlanish masalalari ikki

mamlakat olimlarining e'tibor markazida bo'ldi.

Tadbirida ijtimoiy va gumanitar fanlar yo'nalishlarida mintaqaning boy tarixiy va madaniy merosi ilmiy nuqtayi nazardan tahlil etildi. Markaziy Osiyo tarixi, etnografiyasi va antropologiyasi bo'yicha yangi ilmiy qarashlar, tilshunoslik va adabiyotshunoslikdagi zamonaviy yondashuvlar, madaniy meros, qo'lyozmalarni saqlash, tadqiq etish hamda ommalashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

— Azaldan ilm-fanning barcha yo'nalishlarida Tojikiston va O'zbekiston o'rtasidagi aloqalar mustahkam bo'lib kelgan. So'nggi yillarda ilmiy munosabatlar yangi mazmun bilan boyib bormoqda, — dedi Tojikiston Milliy Fanlar akademiyasi vitse-prezidenti, filologiya fanlari doktori, professor Muhammaddovud Salomiyon. — Keyingi davrda O'zbekiston fanlar akademiyasining ilmiy-tadqiqot institutlari, ilmiy markazlari bilan munosabatlarimiz ancha rivojlandi. Kelgusida ijtimoiy-gumanitar fanlar hamda siyosiy-ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida o'zaro yaqin va manfaatli hamkorlik xalqlarimiz o'rtasidagi do'stlik yanada mustahkamlanishiga xizmat qilishi shubhasiz.

Konferensiya doirasida yalpi majlislar, sho'ba yig'ilishlari, ilmiy ma'ruzalar taqdimoti va ochiq muozaralar tashkil etildi. Shuningdek, ishtirokchilar o'rtasida tajriba almashish, yangi aloqalarni yo'lga qo'yish hamda qo'shma tadqiqot loyihalarini shakllantirish imkoniyati yaratildi.

Mazkur anjuman ikki davlat o'rtasidagi ilmiy diplomatiyani rivojlantirish, ilm-fan integratsiyasini chuqurlashtirish hamda mintaqaviy barqaror taraqqiyotga xizmat qiluvchi innovatsion yechimlarni ilgari surishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Risolat MADIYEVA,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

IJTIMOY HIMOYA — TENGLIK VA ISHONCH ASOSI

To'rtko'l tumanida yashaydigan To'xtaboy O'rinovning nogironligi bor. Ammo u uyda bekor o'tirishni istamay, "Alken tijorat" mebel ishlab chiqarish korxonasida hunar o'rganyapti. Qahramonimiz maxsus dastur doirasida ishga moslashmoqda.



Inson qadri uchun

bois, hozir bu fuqarolar korxonada hunar o'rganib, ish jarayoniga moslashmoqda, — deydi To'rtko'l tumani "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi sho'ba mudiri Azamat Sapayev. — Ular mebel ishlab chiqarish texnologiyalarini bo'yicha o'qitilmoqda. Ko'nikmaga ega bo'lganlar bosqichma-bosqich ishga jalb qilinaypti.

Prezidentimizning 2025-yil 3-fevraldagi "Nogironligi bo'lgan bolalarga ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qarori ijtimoiy ko'makka muhtoj bolalarni va ularning ota-onalari uchun yaxshi imkoniyat bo'ldi. Xususan, 2025-yil 1-iyulda To'rtko'l tumanida davlat-xususiy sheriklik asosida faoliyat yuritayotgan "Munira-Mohira" bog'chasida kunduzgi parvarish xizmati tashkil etilgan edi. Hozir 3 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan 9 bola kunduzgi parvarish xizmati bilan qamrab olingan.

2025-yil 1-iyuldan tumanida o'zgalar parvarishiga muhtoj shaxslarga vaucher asosida yangi turdagi 5 ta xizmat joriy qilingan. Ya'ni uchta tadbirkor o'zgalar parvarishiga muhtoj 92

kishiga uyda qarab turish, tibbiy reabilitatsiya, kunduzgi qarab turish va shaxsiy yordamchi xizmatlarini ko'rsatmoqda.

— Asosiy maqsadimiz nogironligi bo'lgan shaxslarni nafaqat moddiy qo'llab-quvvatlash, balki jamiyatda o'z o'rnini topishiga ko'maklashishdir, — deydi tuman "Inson" ijtimoiy xizmatlar

markazi vakili Azamat Sapayev. — Bular ijtimoiy himoya samaradorligini oshirib, aholini manzilli qo'llab-quvvatlashga xizmat qilmoqda.

Hozir ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslar og'ir hayotiy vaziyatga yoki kambag'allikka tushib qolishining oldini olish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash maqsadida yangi

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

tizim joriy etilmoqda. Ya'ni davlat ta'minotidagi, kambag'al va og'ir hayotiy vaziyatga tushib qolgan oilalarni aniqlash hamda ularga yagona tartib asosida xizmat, yordam va imtiyozlar taqdim etish tizimi ishga tushadi. Shuningdek, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash choralarini o'z ichiga olgan iqtisodiy holatiga munosib ravishda belgilanadi.

— 2026-yil 1-fevraldan boshlab Ijtimoiy himoya yagona reyestri va Kambag'al oilalar reyestri negizida yagona Ijtimoiy reyestr yuritilmoqda. U "Yagona milliy ijtimoiy himoya" axborot tizimida shakllantirilib, davlat ijtimoiy qo'llab-quvvatlash choralarini taqdim etiladigan oilalar va shaxslarni aniqlash, ularning ijtimoiy-iqtisodiy holatini baholashga xizmat qiladi, — deydi Amudaryo tumani Adliya bo'limi Davlat xizmatlari markazi bo'lim boshlig'i Umida Safarboyeva. — Ijtimoiy reyestrda oilalar "davlat ta'minotidagi oila", "kambag'al oila" va "kambag'allik chegarasidagi oila" toifalariga ajratiladi. Bunda oilaning daromadi, mehnatga layoqatli yoki layoqatsiz a'zolari mavjudligi kabi mezonlar asos qilib olinadi. "Kambag'al oila" toifasiga kiritilgan oilalar a'zolari hamda I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslarga davlat xizmatlari ko'rsatiladigan 50 foiz, "davlat ta'minotidagi oila" toifasiga kiritilganlarga esa 75 foiz miqdorida chegirma qo'llaniladi.

Minajdatdin QUTLIMURATOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



Bu xatni ham voqealar qayerda, qaysi manzilda bo'lganini bir oz pardalab e'lon qildik. Notanish singlimizni bolalarni yetim qilmaslikka undadik. Oradan ko'p o'tmay javob xati oldik. Unda birgina jumla yozilgan edi, xolos: "Bordi-yu bu voqea sizlarning singillaringiz bilan sodir bo'lganida, oilasiga qaytib borishini maslahat bergan bo'larmidingiz?". Bu savolga javob yozish qo'limizdan kelmadi.

Ko'ngilda g'unchalagan tuyg'ular

Dildagi gaplar

O'g'ri

Adabiyot gazetasi tahririyatiga yo'llangan bir maktubda bayon qilingan voqeani oradan ancha yillar o'tgan bo'lsa ham unutmayman. Hovlida izg'ib yurgan hakka, qarg'a, olaqanot va boshqa qushlarga ko'zim tushdi deguncha, yodimga tushadi. Maktub muallifi sirli "o'g'rilik" tufayli oilasidan ajragan, badnom bo'lgan begunoh kelinchak. Mana, o'sha maktub.

"Katta hovlili uyga kelin bo'lib tushganman. Kech kuz edi. Qaynotam va qaynotam haj ibodatini ado etib qaytdi. Hamma ularni ziyorat qilgani keldi. Uyimiz ikki-uch kun mehmonlar bilan to'ldi. Ertadan kechgacha dasturxon atrofi to'la odam. Qozonimiz tinimsiz qaynaydi.

Hammamni kuzatib bo'lgach, xonalarni yig'ishtira boshladik. Men, ikki qaynsinglim, qo'shni ayollar tinim bilmay ishladik. Hamma narsani joy-joyiga qo'yib bo'lgach, katta qaysinglim kutilmaganda jazavaga tushib, "Tilla taqinchoqlarim yo'qoldi, kim olgan bo'lsa, qaytarib bersin. Bo'lmasa, sharmandasini chiqaraman", deb shovqin ko'tardi.

Hangu mang bo'lib qoldik. Hovlidagi tosh o'choqda suv isitib, idishlarni yuvayotgandik. Aytishicha, u qo'ldagi taqinchoqlarini shu yerga yechib qo'ygan ekan. Osmonga uchdimi, yerning tagiga kirib ketdimi, hech kim bilmaydi. U yerga bizdan boshqa hech kim borgan emas. Hamma menga qaraydi. Men esa kimga qarashimni bilmayman. Qidirmagan joyimiz qolmadi, ammo topa olmadik. Xullas, taqinchoqlarni men o'g'irlagan bo'lib chiqdim.

Bu gap o'sha kunioyq mahallaga o'rmladi. Ko'chaga chiqa olmay qoldim. Mish-mish avjiga chiqdi. Maktubdan kelayotgan bolalardan biri menga eshittirib, "Ana, o'g'ri kelin", dedi. Uyimdagilar keldi. Qaynotam "Xo'sh, kelin olmagun bo'lsa, kim oladi?" dedi. Qaynotam folbin ayolga borib, ko'rsatgan ekan, "Taqinchoqlar yo'qolmagan, yashirib qo'yilgan", debdi. Bu gapdan keyin ko'zimga ikki olam qorong'i bo'lib ko'rindi, bolalarimni yetaklab, uydan ketdim.

Oradan uch-to'rt oy vaqt o'tdi. Aslida, uch-to'rt oy emas, men uchun ming yil o'tdi, desam ham bo'laveradi. Xudodan umid qilib yurdim, boshqa ilojim yo'q edi. Nihoyat, bir kuni...

Bahorning boshlari edi. Turmush o'trog'im hovli chetidagi kekxa yong'oqning tarvaqaylab ketgan shoxlarini kesish uchun tepasiga chiqqan ekan, qarg'a uyalardan birida bir nimalar yaltillab turgan emish. Qarasa, kichik-kichik oyna siniqlari va... o'sha yo'qolgan



taqinchoqlar. Xursand bo'lganidan daraxtdan yiqilib tushay debdi. Taqinchoqlar topildi, deya uyimizga suyunchilab kelishdi. Ammo bu xushxabar menga ham, ota-onamga ham tariqchilik ta'sir qilmadi. Yong'oqli hovliga qaytib borishdan ko'ra, do'zaxga kirganim afzal, dedim...."

Bu xatni ham voqealar qayerda, qaysi manzilda bo'lganini bir oz pardalab e'lon qildik. Notanish singlimizni bolalarni yetim qilmaslikka undadik. Oradan ko'p o'tmay javob xati oldik. Unda birgina jumla yozilgan edi, xolos: "Bordi-yu bu voqea sizlarning singillaringiz bilan sodir bo'lganida, oilasiga qaytib borishini maslahat bergan bo'larmidingiz?".

Bu savolga javob yozish qo'limizdan kelmadi.

Amal

O'quvchilik yillarim dadam bilan bir xonali uy qurganmiz. Tomi yopilgach, uying ichini suvoq qilish uchun dadam Abdunazar qorini aytib keldi. Buxorodagi katta madrasada ta'lim olgan bu donishmand kishi o'sha yillari bir sabab bilan qishlog'imizga kelib, shu yerdan muqim yashab qolgan. Qur'on tilovatida peshqadam bo'lsa-da, buni oshkor qilmay, kim ish aytasa, yo'q demasdi. Birov bir gapni buzib butunlay teskarisini aytasa ham "E, shunaqa ekanmi, bay-bay, qaranga-a, biz — ahmoqlar madrasada ulamolarni boshqacha tushuntirishsa, ishonib yuravergan ekanmiz-da", deb qo'yardi.

"Huva, noto'g'ri gapiryapti-ku", desangiz, "Ba, adashyapti, ammo izza harom, to'g'risini

eshitaversa, o'zi to'g'rilab oladi", derdi.

Loy yetilgach, men uni iylab, hovuchimda qori buvaga uzataman, u kishi suv sepilgan devorga chaplaydi. Yoshlik qilib bir nimalarni so'rasmam, tushuntirib beradi. Bir payt hovlimizga tog'da yashaydigan cho'ponlardan biri kirib keldi. O'sha kunlari O'nhaytada yashaydigan qarandoshimiz Adashvoy tog'a olamdan o'tgan edi, cho'pon qori buvani tanimay, marhumning ruhiga o'zi bilganicha tilovat qildi-da, nonga og'iz tekkiyib, o'rnidan turdi.

Cho'pon ketgach, men buvaga cho'ponning tilovatida xatolari borligini aytgandim, u kishi "Mayli-mayli, shuncha joydan yiqilib kelibdi, xatoni tuzatsa bo'ladi, niyatda gap ko'p, qani, loydan uzating", dedi. Bu gapning ma'nosini anglash uchun ko'p kitob varaqladim. Hazrat Navoiy "Amallarning boshi — niyatning xolisligida. Niyat xolis, ko'ngil toza bo'lmas ekan, faqihlik kabi sharafli kasb ham nomai e' molning gunohlardan xoli bo'lishiga kafolat berilmaydi", degan ekan.

Baqaterak

Bu yorug' olamga kelgan har bir insonning shaxsiy hayoti, yaxshi-yomon kunlari bo'lgani kabi boshqa jonzotlar, dov-daraxtlar, ulkan bino va inshootlar ham o'ziga yarasha tarix taqdirga ega bo'ladi degan gapni eshitganmizmi?

Rahmatli dadam 82 yil umr ko'rdi. Katta akam Umarjon hofiz "Xudo xohlasa, dadamning yoshiga yetaman", derdi. Niyati ijobat bo'ldi. Hovlimizda bir tup nok bo'lardi. Dadam

Shahar

Talablik yillarim rahmatli dadam bir marta Toshkentga olma sotgani kelgan. O'sha yili hovlimizdagi olmalarning shoxi hosildan egilib, tirgak yog'och rosa kerak bo'lgan ekan. Dadam "Oloy" bozorida uch kun savdo qilib, to'rtinchi kuni bir nimadan xafa bo'lib, qolgan olmani olib-sotarlarga ulgurji berdiyu, qishloqqa qaytdigan bo'ldi. Poyezdga

o'tirayotganida "Dada, yakshanba kuni Toshkentni aylantirmoqchi edim (u paytlari universitetda bir soat o'qishdan qolish mumkin emas edi), olmaning qolganini arzonroq berib yubording desam, "E, o'g'lim-ye, Toshkent menga yoqmaydi. Uch kun olma sotdim, bir kishi ehsonga demadi-ya! Hammasi "Yaxshisidan bering, balnisaga oboraman", deydi. Yaxshisini terib-terib bersam, qolganini oladiganlarning haqiga xiyonat qilgan bo'laman-ku. Ehsonga desa, savobga qo'shilib qolay deb bir-ikkita qo'shib bermoqchi edim. Nima balo, shaharda hamma kasalmi?", dedi.

Nima demoqchi bo'lganini keyinroq — ta'tilga borganimda o'zidan so'rab olganman.

Bozorda savdo qilish qoidasini dadam kosonsoylik mulla Jo'ra oxundan eshitgan ekan. "Olma sotasizmi, nokmi, go'sht yoki bug'doymi — pallani to'g'ri qo'ying va to'g'ri keltiring, — degan ekan bu donishmand inson. — Falon so'mga bay ochdingizmi (ya'ni kelishdingizmi), pallani shunga to'g'rilang. Og'ir qilmang, savdo buziladi. Agar xayr qilmoqchi bo'lsangiz, sotayotgan narsangizni palladan olib, xaridorning idishiga solib bering va "Mana bunisi bizdan sizga sovg'a, duo qilib qo'yasiz", deng. Shunday qilsangiz, savob ish qilgan bo'lasiz".

Biz tomonlarda hali ham shunday. Ehsan oxirida qovun-tarvuz, meva-chevani yetishtirgan dehqon bog'bon haqiga duo qilinadi. Kosonsoyda biror narsani xayri bilan sotish hali ham saqlangan.

Shaharda bo'lsa... hamma "kasal".

Do'ppi

Shoir Muhammad Yusufning do'ppi haqidagi mashhur she'rini eslaysizmi? Bu she'r boshidan aslo do'ppi tushmaydigan adib Murodjon Mansurovga bag'ishlangan edi.

Ko'plar bu she'rni yoddan o'qiydi. Ancha avval yozilgan bo'lishiga qaramay, uning sodda, xalqona satrlari xuddi bugun yozilganday ta'sirchan jaranglab turadi. Yillar o'tgani sayin she'rning ma'no-mohiyati yanada ochilib bormoqda. Buning boisini boshqa yoqdan emas, she'rning o'zidan axtarish kerak. Do'ppi asli nima uchun kiyiladi? Bugun atrofingizga bir qarang — do'ppi boshlarni qayerda uchratish mumkin? To'y yoki azizlik.

Ertalab soqolni qirtirishlab, sochni tarab, bo'yinbog'ni taqib, jomadonda taxta buzilmay yotgan do'ppingizni kiyib isha keling-chi. Eng yaqinlaringiz ham "tinchlikmi?" deganday sizga sergaklanib qaraydi.

Bir gal Muhammad Yusufga shu mulohazalarni aytib, she'rdagi "Bosh qolmadi do'ppiga loyiq" satrini "Bel qolmadi, belboqqa loyiq", deya o'zgartirib, lutf qilgan edim, shoir darhol javob qaytardi:

— Do'ppi, belbog'... Erkaklarni qo'ya turaylik, ayollar ham ko'p narsalardan voz kechdi, ammo hammasini she'rga solib bo'lmaydi-da, aka...

YIGITLARIMIZGA

ISHONAMAN

Gazetxon maktubi

Futbol bo'yicha O'zbekiston terma jamoasining jahon chempionatiga chiqishi millionlab muxlislarning uzoq kutgan orzulari ro'yobi sifatida tarix sahifalariga muhrlandi. Yigitlarimizning katta maydonlardagi qiziqarli bellashuvlariga sanoqli oylar qoldi. Barchamiz ularning mag'rur saf tortganча madhiyamizni zavq-shavq bilan kuylayotgan lahzalarni intiqlik bilan kutaymiz.

Qur'a tashlanib, raqiblarimiz aniq-langach, bir-ikki davralardagi tortishuvlar tufayli ko'nglim bir oz xijil tortdi. Bizga nihoyatda kuchli raqiblar tushganmish, Ronaldu kabi futbol ustalari bilan bellashish oson bo'lmasmish. Ochig'ini, bunday iddaolardan hayron bo'laman. Tan olib aytadigan bo'lsak, yigitlarimiz saralangan saralarni dog'da qoldirib, bunday marraqa yetib keldi. Biz ularni qo'llab-quvvatlab tursak bas, qolganini o'zlariga eplashadi.

Shu o'rinda o'quvchilik yillarimdagi bir voqea yodimga tushdi. Bolalik va o'quvchilik yillarim Chust shahrida



o'tgan. O'sha paytda 4-maktabimizda qo'l to'pi juda ommalashgandi. 1979-yilda shahar maktablari o'rtasida tashkil etilgan spartakiada o'yinlarida qo'l to'pi bo'yicha finalga chiqdik.

Jismoniy tarbiya o'qituvchimiz Rahimjon aka Nurmatov hamrohligida yarim soat oldinroq o'yingohga kirib bordik. U yer tomoshabinlarga to'lib ketgandi.

Raqiblarimiz maktabi o'yingohga yaqinligi bois, ular maydonda emin-

erkin yurganча chigilyozdi mashqlarni boshlab yuborgandi. Aksariyati bizga nisbatan gavdali, o'zlariga bo'lgan ishonch har bir harakatlarida yaqqol sezilib turardi. Ularni bir oz kuzatgan bo'lib, maydonning bo'shroq tomonida biz ham shunday boshlab yubordik.

O'yin boshlanganda bir narsa e'tiborimni tortdi. Tomoshabinlarning asosiy qismi raqiblarimizni qo'llab-quvvatlashayotgandi. Bu ham muayyan ma'noda bizga zarba bo'ldi. Shunga

qaramay, birinchi bo'lim 8:8 hisobi bilan yakunlandi. Tushkun kayfiyatda tanaffusga chiqdik.

Ustozimiz Rahimjon aka nihoyatda sezgir va zukko edi. Har qanday sharoitda ham bolalarni ruhan tetiklashtirishning uddasidan chiqa olardi.

— Bolalar, — dedi u begona odam yo'qmikan degan o'yda yon-atrofga bir qarab olib. — Men yuz foiz ishonch bilan ayta olaman. Mahorat borasida sizlar raqibingizdan bir qarich ustunsizlar.

Endi bir ish qilamiz. Ularning to'rtinchi raqamli o'yinchihsiga umuman imkon bermasligimiz kerak. Ko'rib turib, ko'liga to'p tushdi deganicha gol uryapti. Sen, dedi menga qarab, qo'lida to'p bo'lsa-bo'lmasa, uning oldidan bir qarich ham jilmaysan. Shunday qilginki, uning maydonda bor-yo'qligi bilinmasin. Yana bir gap. Hammalarning birdaniga emas, bitta-bitta o'ng tomondagi tomoshabinlar tomon qaranglar. Oppoq yaxtak kiygan, soqoli ko'ksiga tushgan to'rtta otaxon

o'tiribdi. Mahallamiz oqsoqollari. Mabodo o'yinni boy bersak, ularning ko'ziga qanday qaraysizlar.

Nazarimda, otaxonlar atay tomosha uchun kelmagan. O'yingohning yon tomonidagi jome masjidiga ibodat uchun kelib, yo'l-yo'lakay qiziqish tufayli kirgan. Shunday bo'lsa-da, ular tashrifidan ko'nglimiz tog'day ko'tarildi.

Ikkinchi bo'lim oldidan ilgari his qilmagan allaqanday tuyg'ularni tuygandek bo'ldik. Mahalla va maktab sharafini himoya qilishdek mas'uliyat va ishonch, o'n negon o'lti yashar biz o'smirlarga qanot bag'ishlagandek edi. Ikkinchi bo'limga go'yoki "uchib yurdik". Yana sakkiz marta raqib darvozasi ishg'ol qildik. Ular esa uch marta zo'rg'a to'p kiritishga erishdi, xolos. Qiziq jihati, tomoshabinlar yoppasiga bizni olqishlay boshladi.

Salkam ellik yil oldingi xotiralar ko'z oldimdan kino tasmasidek o'tarkan, ko'nglimni allaqanday ishonch va xotirjamlik chulg'ab olganday bo'ldi. Bugun millionlab vatandoshimiz jahon chempionatida futbolchilarimizni duo qilib, qo'llab-quvvatlashadi. Ko'pning ishonch va umidi yigitlarga qanot bo'lishiga shubha yo'q. Ular yangi O'zbekiston dovrug'ini dunyoga tanitishdek ulkan imkoniyatni qo'ldan bermaydi. Men jamoamizga butun borlig'im bilan ishonaman va o'sha farahli lahzalarni intiqlik bilan kutaman.

Yusuf FAYZULLO, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati DM

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqiriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul. Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 236. Buyurtma G-346. 31346 nusxada bosildi. Hajmi — 3 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda.

"SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.

Navbatchi muharrir: Nodir Mahmudov Musahhih: Sherzod Mahmudov Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzillimiz: 100060, Toshkent shahri, Shahrisabz ko'chasi, 85-uy

O'za yakuni — 21:40